

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIM KAFEDRASI**

Fakultet dekani:

dots. Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

dots. Raupov S.S.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da
amalga oshirilgan islohotlar.**

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi
bakalavr darajasini olish uchun**

**"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi
bitiruvchisi: Ochilov Sardor
Komilovich**

**Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi
Shirinov A.Q.**

Buxoro - 2018

Mavzu: “2017-yil Inson manfaatlari xalq bilan muloqot va yiida amalga oshirilayotgan islohotlar”

Reja:

Kirish

I. “2017-yil Inson manfaatlari xalq va bilan muloqot va yiida jamiyatimizdagi muammolar amalga oshirilgan islohotlar islohotlar”

1.1 “Xalq bilan muloqot yili”da jamiyatimizdagi muammolar.

1.2 “Xalq bilan muloqot yili”da amalga oshirilgan ishlar.

II. “2017-yil Inson manfaatlari va xalq bilan muloqot yilida xalq qabulxonalari tezkor davlat xizmatlari agentligining mening fikrim sayti”ning tashkil etilishi.

2.1 Xalq qabulxonalari faoliyatining tashkil tilishi.

2.2 Tezkor davlat xizmatlari agentligining tashkil etilishi.

2.3Mening fikrim sayti xalq bilan muloqot vositasi sifatida.

Xulosa.

Foydlanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

• **Bitiruv malakaviy ishda mavzuning dolzarligi.** Xalq bilan muloqot yilida muammo, yechim va samara aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizm va samarali usullarini joriy etish . Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida islohotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida joylarda o‘tkazilayotgan uchrashuv va ochiq muloqotlarda aholi turmush farovonligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni yanada rivojlantirish uchun birinchi navatda xalq ilan muloqot qilish xalqni eshiishni xalqni qiynayotgan muammo va savollarni eshitishimiz kerak xalqimizga murojatni har bir sohada amalga oshirishimiz kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga ag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy muhitni o‘rganish maqsadida qator tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tashkil etilib, bugungi kunda viloyatlarda faoliyat olib bormoqda. – Aholi bilan muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolar yechimini topish asosiy vazifalarimizdan biridir. Jamiyatda hali juda ko‘p muammolar turibti ularni hal etish uchun ko‘p ko‘p masalalar odimizga turibti ularni hal etish uchun xalqni dardini eshitabilishimiz kerak. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da aholi turmush farovonligini yuksaltirish, oilalar mustahkamligi va jamiyatimiz barqarorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar samarasidir. Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda davlat va jamiyatni rivojlantirish,

yurtimiz obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, xalqimiz turmush darajasini oshirish borasida tom ma'nodagi misli ko'rilmagan yangilanish va rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Bu, albatta, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatiga ham taalluqlidir. Ya'ni har bir jamoat tashkiloti o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqqan holda, inson manfaatlarini ta'minlash maqsadida qo'yilgan talablarni amalga oshirishga o'z hissasini qo'shmog'i zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir tashkilot oldiga qo'yilayotgan talablar ijrosida xotin-qizlar faolligi ham muhimdir. Chunki bugun iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohalarda mehnat qilayotgan aholining yarmini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ulushini oshirish ham dolzarb ahamiyatga egadir. Dastur joylarda qabul qilingan qonunlar, buyruqlar va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, davlat organlarining o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish bo'yicha faoliyatining samaradorligi ustidan parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni shakllantirish.

• **Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Dastur doirasida aholi va yuridik shaxslar o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va uslublarini joriy qilish, barcha hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisob berish tizimini joriy etish; Joylarda "xalq qabullari"ni joriy etishning tashkiliy-amaliy, huquqiy, moddiy-texnik va moliyaviy asoslarini belgilash, fuqaro murojaatlari eng ko'p kuzatiladigan sohalardagi byurokratik to'siqlarni va muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini ta'minlash; Aholiga talab katta bo'lgan davlat xizmatlarini «yagona darcha» tamoyili bo'yicha bir muassasa orqali ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. Davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari o'rnini kengaytirish, «Elektron hukumat» tizimini samarali rivojlantirish borasidagi choralar; Aholining huquqiy madaniyati va moliyaviy-iqtisodiy savodxonligini oshirish hamda fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash tizimini shakllantirish bo'yicha

tadbirlar ham davlat dasturiga kiritiladi. Iqtisodiyotni boshqarishdagi davlat rolini kamaytirish choralarini ko'rish, davlat boshqaruv idoralari vakolatlarini optimallashtirishga qaratilgan ma'muriy islohotlarni ishlab chiqishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, davlat xizmatchilarining moddiy va maxsus ta'minotini takomillashtirish, professional mutaxassislar tayyorlashga e'tibor qaratish; Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlash hamda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar; Hududlarda tijoriy banklarning faol ishtiroki bilan yangi ish joylari tashkil qilish, shuningdek, ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalar miqdorini ko'paytirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish; Muhandis-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi sohalarini yangilash va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi; Ta'lim tizimi, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks choralarni amaliyotga tatbiq etish; Diniy e'tiqodi va qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar mamlakatning barcha fuqarolariga teng huquq va imkoniyatlar mavjudligini ta'minlash, mahalla instituti, ayollar va yoshlar tashkilotlari, faxriylar birlashmalarining mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish.

• **Bitiruv malakaviy ishi predmeti.** Ushbu ishning predmeti bo'lib "2017- yil xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirilayotgan islohotlarini amalga oshirishga mavjud bo'lgan muammolar.

• **Bitiruv malakaviy ishi obyekt.** O'zbekistonda "2017-yil xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da xalqni qiynayotgan muammolar ularni bartaraf etish yo'llari.

• **Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati.** O'zbekiston respublikasida xalq qabulxonalarini bo'yicha qabul qilinggan prezident farmonlari, qonunchilik hujjatlari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishga dasturamal vazifani bajardi.

• **Bituruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi.** Mazkur bituruv malakaviy ishi tarkibidan kirish, ikki bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarb jihatlarini asoslovchi fikirlar hamda hamda bituruv malakaviy ish oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar keltirilgan.

Birinchi bobda. “2017-yil Inson manfaatlari xalq va bilan muloqot va yiida jamiyatimizdagi muammolar amalga oshirilgan islohotlar islohotlar” bayon etilgan

Ikkinchi bobda . “2017-yil Inson manfaatlari va xalq bilan muloqot yilida xalq qabulxonalarini tezkor davlat xizmatlari agentligining mening fikrim sayti”ning tashkil etilishi. ” bayon etilgan

Xulosa qismida bituruv malakaviy ishini yozish jarayonida chiqarilgan xulosa asosida takliflar ishla chiqilgan. ishning umumiy hajmi __ betdan iborat.

I. “2017-yil Inson manfaatlari xalq va bilan muloqot va yiida jamiyatimizdagi muammolar amalga oshirilgan islohotlar islohotlar”

1.1 “Xalq bilan muloqot yili”da jamiyatimizdagi muammolar.

Xalq bilan muloqot: muammo, yechim va samara Aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizm va samarali usullarini joriy etish Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida islohotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida joylarda o‘tkazilayotgan uchrashuv va ochiq muloqotlarda aholi turmush farovonligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumani “Qo‘ng‘irotko‘l” ovul fuqarolar yig‘inida bo‘lib o‘tgan muloqotda tuman hokimi, prokuratura, ichki ishlar organlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. Mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholiga munosib mehnat va yashash sharoiti yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samaralar berayotgani ta’kidlandi. Odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og‘irini yengil qilish aholining davlat va jamiyatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.¹ Ovulda istiqomat qilayotgan aholi turmush darajasini oshirish, hududni obodonlashtirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilayotgani tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

¹<http://www.uza.uz/uz/society/xalq-bilan-muloqot-muammo-yechim-va-samara--10-02-2017>

Dasturni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi. Dehqonchilik qilish uchun yetarli darajada yer maydoni ajratilmayotgani, yo'lovchi tashuvchi avtotransport vositalari yetishmasligi ayniqsa kasb-hunar kollejiga qatnab o'qiydigan o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirayotgani, kommunal va savdo xizmati, energiya ta'minoti, yo'llarning holatini yaxshilash bo'yicha aholi murojaatlari o'rganildi.

Oila – jamiyat butunligi va ahilligini kafolatlovchi qo'rg'on, inson hayotiga to'kislik bag'ishlovchi maskan, avlodlar davomiyligini ta'minlovchi muqaddas dargoh. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida oila mustahkamligiga, ehtiyojmand oilalar muammolarini hal etishga, ularning turmush farovonligini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muhitni o'rganish maqsadida qator tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tashkil etilib, bugungi kunda viloyatlarda faoliyat olib bormoqda. Aholi bilan muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolar yechimini topish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu kunlarda ishchi guruhi a'zolari oilalarga kirib, ularning ijtimoiy-maishiy sharoitlari bilan tanishmoqda, bir qator muammolar joyida hal etilayotir. Hozirga qadar birgina farg'ona hududi misolida qaraydigan bo'lsak 814 mahalladagi qariyb 76 ming 400 xonadonda suhbat o'tkazilib, 4 mingdan ziyod muammo aniqlandi. E'tiborli jihati shundaki, mamlakatda tomorqachilik, milliy hunarmandlik, oilaviy biznesni yo'lga qo'yib, daromad ko'rayotgan oilalar soni ko'payib bormoqda. Bu oila mustahkamligi hamda farovonligiga xizmat qilmoqda. Oilalar mustahkamligini ta'minlash, mustaqil fikrlaydigan, zamon talabiga javob beradigan avlodni tarbiyalashdek muhim vazifalarni hayotga tatbiq etish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining samarali faoliyatiga ko'p

jihatdan bog‘liq. Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida jamiyat poydevori, xalq demokratiyasining o‘ziga xos shakli sifatida mahallalar faoliyatini har tomonlama takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Buning samarasida mahalla to‘masida jamiyatda demokratik islohotlarni rivojlantirish, inson manfaatlarini ta‘minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, jismonan va ma‘nan barkamol etib tarbiyalash maskaniga aylandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Ayni kunlarda viloyatdagi mingdan ziyod mahallada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ishchi guruh faoliyati doirasida ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash, bandlik, ichki yo‘llarni tartibga keltirish masalalari o‘rganilayotgani, tibbiyot sohasini takomillashtirish yuzasidan tadbirlar belgilangani odamlarning dunyoqarashini, hayotga munosabatini o‘zgartirmoqda. Aholi bunday muloqotlardan minnatdor bo‘lmoqda. Bularning barchasi "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da aholi turmush farovonligini yuksaltirish, oilalar mustahkamligi va jamiyatimiz barqarorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar samarasidir¹. Odamlar bilan muloqot kundalik vazifamizga aylanishi kerak² Ayol millat yuzidagi nur, qalbidagi quyoshdir. Shu bois jamiyatning ma‘naviy bar-kamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma‘naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, mehnat faoliyatini oiladan ajralmagan holda olibborishlarini ta‘minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun davlatimiz tomonidan barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

— Tanzila Kamalovna, Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi ayni paytda mamlakat Bosh vazirining o‘rinbosari hisoblanishi davlat tomonidan xotin-qizlar

¹<http://www.uza.uz/uz/society/ochiq-muloqot-amaliy-natija-bermoqda-14-02-2017>

²<http://uzbekistan.lv/uz/odamlar-bilan-muloqot-kundalik-vazifamizga-aylanishi-kerak/>

masalasiga yuksak e'tibor namunasi bo'lishi bilan birga, albatta, mazkur tashkilotga bo'lgan katta ishonch hamdir. Sir emaski, ijtimoiy soha yo'nalishlarida ko'p yillik boy tajribaga egasiz. Hozirgi vaqtda mamlakat va jamiyat hayotida bo'layotgan islohot va o'zgarishlarda oldingizda turgan asosiy vazifalar haqida to'xtalib o'tsangiz.

—Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda davlat va jamiyatni rivojlantirish, yurtimiz obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, xalqimiz turmush darajasini oshirish borasida tom ma'nodagi misli ko'rilmagan yangilanish va rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Bu, albatta, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatiga ham taalluqlidir. Ya'ni har bir jamoat tashkiloti o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqqan holda, inson manfaatlarini ta'minlash maqsadida qo'yilgan talablarni amalga oshirishga o'z hissasini qo'shmog'i zarur.

Bunda bizga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida belgilab berilgan ustuvor vazifalar dasturilamal bo'lmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, bu vazifalar respublikamizdagi davlat tashkilotlari qatori barcha nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ham asosini tashkil etmog'i maqsadga muvofiqdir. Zero, davlatimiz rahbari taklifi bilan 2017-yilning mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi barchamizga birdek mas'uliyat yuklaydi. Ushbu mas'uliyat, avvalo, xalqimiz turmushi, jamiyat hayotida mavjud bo'lgan turli masala va muammolarga kompleks yondashuvni, bunda, albatta, mamlakatimizda tobora rivoj topib borayotgan ijtimoiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish, ya'ni bir emas, bir nechta jamoat tashkilotlari imkoniyatlarini birlashtirgan holda, mavjud masalalarni hal etish tizimini yaratishni talab etadi. Shu ma'noda, bugun raqam

yig'ib, faqat hisobot tuzish yo'li bilan ishlab bo'lmaydi. Har birimiz fuqarolarning o'zi tanlagan sohadan mamnun bo'lib ishlashi, uyiga ham xuddi shu kayfiyatda qaytishi, sirasini aytganda, har bir insonning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojlarining ta'minlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Ushbu maqsadlarda oilalarga kirib borgan holda, ular turmushi darajasini kompleks o'rganishning tizimli mexanizmini yaratish asosiy maqsadlarimizdan biridir. Bu orqali har bir oila a'zosining ijtimoiy holati, salomatligi, o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishi, bolalar tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, oila byudjetini ko'paytirish masalalari, bunda mazkur oila istiqomat qilayotgan hududdagi mahalla, ta'lim-tarbiya muassasasi, xotin-qizlar qo'mitasi, banklar va boshqa tashkilotlar hamkorligini chuqur o'rganish ishlarini amalga oshirishni maqsad qilganmiz. Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan tahlillar, ularning natijalariga ko'ra ko'rsatilgan amaliy yordam, so'zsiz, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, turmush sharoiti darajasi hamda oila daromadini ko'paytirish, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Eng muhimi, odamlar bilan muloqot intensiv va keng qamrovli bo'lishi lozim.

Joylarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasanachilik asosidagi ish o'rinlarini yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o'z ishini boshlashida ko'maklashish masalalarida amaliy yordam ko'rsatilishi zarur. Bunda tegishli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uyg'unligining ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, mamlakatimizda qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun ham jamiyatda mavjud ijtimoiy -masalalarni hal etishda samaradorlikka erishish, uning barqarorligi, rivojlanishi, unumli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Bugun davlat va jamoat tashkilotlari, bank muassasalari hamkorlikda aholi manfaatlarini ta'minlash, oilalar daromadlarini oshirish masalasida sa'y-harakatlarni birlashtirmog'i ayni muddao. Bu o'z-o'zidan fuqarolarning mavjud ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, oz bo'lsa-da, jamiyatimizda uchrab turadigan ayrim

noxush holat va illatlarning oldini olib, yoshlarning mustaqil hayotda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashadi. Mazkur yo'nalishlardagi ishlarda samaradorlikka erishish maqsadida har bir tashkilot o'z faoliyatini tubdan tanqidiy ko'rib chiqmog'i, bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'rishi muhimdir. Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish oldimizda turgan eng asosiy maqsadlardan biridir.

Xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xotin-qizlar qo'mitasi bu borada, eng avvalo, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda yetakchi kuch bo'lishi kerak. Chunki qaysiki oilada sog'lom muhit shakllangan bo'lsa, bu maskanda, albatta, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlik ham bo'ladi. Bu jarayonda "Ta'lim muassasasi— oila— mahalla" hamkorligini tubdan qayta ko'rib chiqishimiz va talab darajasida ishlovchi hamkorlik mexanizmini yaratishimiz bugungi kun talabidir. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning yana bir muhim omili — xotin-qizlar o'rtasida sportning ommaviyligini oshirish hisoblanadi. Bu borada ham birgina tadbir o'tkazish bilan cheklanmasdan, mahallalarda, oilalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish masalasini kundalik ehtiyojga aylantirish

chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim. Bunda ko'proq chekka qishloqlarda istiqomat qilayotgan opa-singillarimiz, uyushmagan aholi vakillariga e'tiborni kuchaytirsak, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda xotin-qizlar masalalari bo'yicha ish olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari soni ko'payib bormoqda. Bu tobora rivoj topayotgan fuqarolik jamiyatiga xos xususiyat, albatta. Biroq yana bir muhim jihat borki, bu ular faoliyatining sifati va samaradorligi masalasidir. Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi ular faoliyatini muvofiqlashtirish masalasiga respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi bilan yondashadi. "Kuchli davlatdan—kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining hayotga tatbiq etilishi natijasida bugun ijtimoiy masalalar, jumladan, xotin-qizlar masalalarida faoliyat yuritadigan nodavlat

notijorat tashkilotlari soni ham ortib bormoqda. 2016 yilda bunday tashkilotlar soni 295 taga yetdi. Ularga davlat byudjetidan muntazam grantlar ajratib kelinmoqda. Shu o'rinda ushbu tashkilotlarning barchasi ham mana shu imkoniyatlardan to'g'ri, to'laqonli va samarali foydalanmoqdami, degan savol tug'ilishi tabiiy. Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi xotin-qizlar va oila masalalari bo'yicha faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari ishini to'g'ri yo'naltirishi, ularga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratgan holda ajratilayotgan grant mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashi, joylardagi muammolarni hal etishda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirishi juda muhimdir. Oila manfaatlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish jarayonida qo'mita faol ishtirok etishi zarur. Shu bilan birga, mazkur sohadagi qonunchilikning qanday bajarilayotgani borasida bevosita har bir hududdagi mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari, ularda istiqomat qilayotgan oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan tanishish, har bir xotin-qiz bilan bevosita muloqot qilish, muammolarini o'rganish orqali tizimli monitoring yuritish, bu borada aniqlangan xato va kamchiliklarni xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari, zarur hollarda esa mamlakat miqyosida ko'rib chiqilishi uchun takliflar kiritish bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lmog'i zarur.

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Xalqaro mehnat tashkilotining "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi, "Mehnat va bandlik sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalarining hayotga tatbiq etilishini har bir hudud bo'yicha tahliliy ko'rib chiqish ishlariga kirishishni rejalashtirganmiz. Bu jarayonda BMT va Xalqaro mehnat - tashkilotining tegishli organlari tomonidan O'zbekistonga berilgan tavsiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha tadbirlar belgilangan. Bugun davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan talablar davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirishni ham taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir tashkilot oldiga qo'yilayotgan talablar ijrosida xotin-qizlar faolligi ham muhimdir. Chunki bugun iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohalarda mehnat qilayotgan aholining yarmini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ulushini oshirish ham dolzarb ahamiyatga egadir. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda davlatimiz tomonidan xotin-qizlar uchun belgilangan 30 foizlik kvotaning bevosita salohiyatli rahbar ayollarni tayyorlash, jamiyat hayotida ular faolligini oshirish masalasiga ham tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun zarur sharoitlarni yaratish, turli sohalarda mehnat qilayotgan xotin-qizlar salohiyatini oshirishda bevosita qo'mita faolligini kuchaytirish zarur.

Siyosiy partiyalar faoliyatida ham xotin-qizlar ishtirokini oshirish, bu orqali mamlakatimiz ayollari hayotidagi turli masalalar, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarda yechimini kutayotgan muammolarni yuzaga chiqarish, bartaraf etish omillaridan samarali foydalanish ham 2017-yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yilidagi asosiy vazifalardan biri bo'lgan.

Xotin-qizlarimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ochilmagan qirralarini yuzaga chiqarish va iqtidorlarini to'la-to'kis namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida ham izlanmoqdamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda fan doktori ilmiy unvoniga ega bo'lgan xotin-qizlar soni 510 dan ziyodni, fan nomzodlari qariyb 5 ming nafarni, akademik ayollar soni 6 nafarni tashkil etmoqda. 15 nafar faol va ibratli ayol davlatimizning eng nufuzli mukofoti — "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qizlarimizning keyingi faoliyatini kuchaytirish, mamlakatimiz kadrlar zaxirasini malakali mutaxassislar bilan boyitish ham diqqat-e'tiborimizda bo'ladi. Ayni kunda bunday -yuksak mukofotga sazovor bo'lgan qizlarimiz soni 240 nafarga yetdi.

Oqila, mehribon, fidoyi opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, hayotdan mamnun bo'lib yashashlarini kafolatlash, ularning oiladagi o'rni, jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish borasida Prezidentimiz tomonidan bizning oldimizga qo'yilgan vazifalarni

bajarish, bunda davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda ijtimoiy sheriklik munosabatlariga tayangan holda faol ish olib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

1.2. “Xalq bilan muloqot yili”da amalga oshirilgan ishlar.

Konstitutsiyamizning 2-moddasida qayd etilganidek, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar. Ushbu qomusiy tamoyillar Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida mukammal ravishda ro’yobga chiqarilmoqda. Bosh qomusimizda birinchi o’rinda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari va undan keyin davlat organlari va ularning huquq va majburiyatlari o’z aksini topgan. Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi davlat organlarining xalqimiz oldida mas’ulligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatida ham aynan shu ma’no mujassamlangan. Davlatimiz rahbarining har bir harakati, fikr va mulohazalari, ayniqsa “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan so’zlari, Konstitutsiyamizning 2-moddasidagi qoidaning yorqin amaliy ifodasidir. Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilinib, amalga oshirilayotgan 2017 yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturi orqali mazkur konstitutsiyaviy normalar o’zining yangi sifat va samara bosqichiga ko’tarilganini bugungi kunda butun dunyo tan olyapti.

Xalq bilan muloqotning yangi konsepsiyasi e’lon qilinishi, Prezidentimizning Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari tashkil etilishi, uni boshqarish uchun yaxlit vertikal tizimning joriy etilishi, shuningdek, fuqarolarining dunyoqarashini butunlay o’zgartirgan muvaffaqiyatli faoliyati, bularning barchasi shunday katta ahamiyatga ega bo’ldiki, ko’plab olimlar va ekspertlar mazkur yangi fenomen

sohadagi nazariy asoslarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qilayotganini ta'kidlamogda.

Mamlakatimizda so'nggi bir yilda olib borilgan samimiy va ochiq muloqot, ommaviy axborot vositalarining faollashishi, informatsion sohaning shiddatli rivoji jamiyatni batamom o'zgartirdi. Bu odamlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki, fuqarolik faolligining oshganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Adliya organlari o'z navbatida davlat institutining bir bo'lagi sifatida yuklangan vazifalarni bajarishda konstitutsiyaviy tamoyillarga tayangan holda fuqarolarning talabi, kelajakda kutayotgan umidlari va istaklaridan kelib chiqib o'zining sa'y-harakatlarini inson manfaatlarini to'la ta'minlashga yo'naltirmogda. Adliya vazirligi tizimida inson huquqlarini himoya qilish izchil yo'lga qo'yilgan. Ularning aksariyati qanoatlantirilib, mingga yaqin shaxsning buzilgan huquqlari tiklandi. Fuqarolar manfaatlarini ko'zlab sudlarga 440 da'vo arizasi hamda aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 180 ma'muriy va 11 jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar kiritildi. O'tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlari davomida tegishli idoralarga kiritilgan taqdimnoma va ogohnomalar natijasida 46 noqonuniy hujjat ijrosi to'xtatildi va bekor qilindi. 527 mansabdor shaxs tegishli intizomiy jazoga tortildi. Shulardan 84 nafari egallab turgan vazifasidan ozod etildi. Bunda asosiy e'tibor fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashgina emas, balki ularning huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilmogda. Xalq bilan o'tkazilayotgan ochiq muloqotlar hamda jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, amaldagi qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmogda.

Fuqarolarning hayotiy muammolarini, ya'ni yaqin qarindoshlari yoki o'zining sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilishni rad etish holatlarining oldini olish maqsadida Mehnat kodeksining 78-moddasiga shaxsni ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishni taqiqlovchi norma belgilash bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa, vatanparvar, tashabbuskor, bilimli, intiluvchan

fuqarolarning mehnat qilish va erkin kasb tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini to'liq ta'minlashga xizmat qiladi.

Aholining fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo'limlari, notariat va advokaturaga kundalik turmushda ko'proq ishi tushadi. Mazkur yo'nalishlar adliya organlarining bevosita fuqarolarga xizmat ko'rsatadigan sohalaridir. Hozirda ulardagi xizmat ko'rsatish sifati va holati, albatta, bizni ham, xalqimizni ham qoniqtirmaydi. Shuning uchun bu sohalarni yanada takomillashtirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Fuqarolarimiz ushbu idoralarga borganida navbat kutib qolmasligi, ularga tez va sifatli xizmat ko'rsatilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbariyati tomonidan qat'iy vazifalar qo'yilgan.

Ayni paytda tizimda zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda tug'ilganlik, nikoh haqida, nikohdan ajralganlik va boshqa dalolatnoma yozuvlarini elektron shaklda to'ldirish joriy etildi. Bu esa fuqarolarning tez javob olishini ta'minlash bilan birga huquqiy yordam ko'rsatishga ketadigan vaqt sarfini qisqartirdi. Masalan, fuqarolik holati dalolatnoma yozuvini qayd etish uchun ketadigan vaqt o'rtacha 7 daqiqagacha qisqardi hamda dalolatnoma yozuvini to'ldirishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldi olinishiga erishildi.

“FHDYO yagona elektron arxivi” dasturiy ta'minotiga qayd etilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari kiritilib, yagona baza shakllantirilmoqda. Mazkur dastur kelgusida tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan integratsiya qilinadi. Jumladan, Sog'liqni saqlash va Ichki ishlar vazirliklari elektron bazalari bilan ma'lumotlarni elektron shaklda almashish fuqarolar va FHDYO organlari tomonidan sarflangan vaqtning tejalishi hamda hujjatlarni rasmiylashtirishda turli xil tafovutlarga yo'l qo'yilishining oldi olinadi. Hozirgi kunda dalolatnoma yozuvlarini qayd etish bilan bog'liq davlat boji, gerb yig'imi va pullik xizmatlar to'lovlarini billing sistemasi orqali amalga oshirish, fuqarolar tomonidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinetini orqali FHDYO organlariga

murojaat qilishi, FHDYO organi mudiri qabuliga onlayn yozilishi mexanizmi yaratilmoqda. Mazkur masalalar bo'yicha manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish va mavjud elektron dasturlar bo'yicha integratsiya ishlari amalga oshirilayotir. Keyingi uch yilda mamlakatimiz bo'yicha 36 yangi FHDYO organi binosi qurildi, 23 bino kapital ta'mirlandi. Ushbu binolarning qurilishi milliy va zamonaviy me'morchilik an'analari o'zida uyg'unlashtirgani bilan davr talablariga to'liq javob beradi.

Notariat institutiga to'xtaladigan bo'lsak, notariuslar faqat nizosiz bo'lgan faktlarni tasdiqlaydi. Chunki, notarial harakatni rasmiylashtirishda taraflar notariusga o'z xohish-irodalariga ko'ra hamda bitimlarni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va belgilangan to'lovlarni to'lagan holda murojaat etadi. Hozir mamlakatimizda 541 davlat notarial idorasida 749 nafar notarius faoliyat ko'rsatmoqda. Notariuslarga bo'lgan murojaatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013-2014-yillarda 4,5 million, 2015-2016 yillarda 5 million, 2017 yilning 6 oyi davomida 3 milliondan ziyod notarial harakatlar amalga oshirilgan. Adliya vazirligi tomonidan notariat idoralarining kelajagi, ularning 5 yil, 10-15 yildan keyingi istiqbollari tahlil qilgan holda, boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasi, ularning yutuqlari va kamchiliklari o'rganilib, bu sohada xalqimizni qiynayotgan muammolar va yo'l qo'yilayotgan qonunbuzilishlarning oldini oluvchi, notariat idoralarining muammoni sudgacha hal etuvchi institut sifatidagi mavqeini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Notariuslarning o'z kasb majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga sharoit yaratish, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligining oldini olish maqsadida Davlat notarial idoralarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini navbatma-navbat qayd etish tartibi joriy etildi. Unga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar notarial idoralarga bevosita kelib, telefon yoki internet orqali o'zlari uchun qulay va aniq vaqtda notarius qabuliga yozilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi qaroriga asosan, notariat idoralari tomonidan ko'chmas mulkning oldi-sotdi, ayirboshlash va hadya qilish bitimlarini

notarial tasdiqlashda idoralararo elektron hamkorlikni qoʻllagan holda maʼlumotlar olishning yangi tartibi “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilib, 2017-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahrida ishga tushirildi. Bu tartib Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududida 2018-yil 1-iyuldan boshlab amalga oshiriladi. Natijada soliqlar, kommunal xizmatlar va elektr energiya boʻyicha qarzdorlik yoʻqligi, bino va inshootlarning tegishliligi haqidagi maʼlumotlarni fuqarolar tomonidan qogʻoz koʻrinishida yigʻish amaliyotiga chek qoʻyildi. Buning oʻrniga esa ushbu maʼlumotlarni notariuslar idoralararo elektron hamkorlik tizimi orqali aniq vaqt rejimida mustaqil olish imkoniyati yaratildi. Notariat sohasidagi islohotlar notarial harakatlarni amalga oshirishdan manfaatdor boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquqlarini yanada mustahkamlashga, notariuslarning esa ularga murojaat etgan shaxslar oldidagi majburiyatlarini vijdonan va halol bajarishiga xizmat qilmoqda. Adliya idorasiga kelgan har bir fuqaro bu maskandan rozi boʻlib ketishi biz uchun juda muhimdir. 2017-yilning 1-iyul holatiga advokatlik faoliyati bilan shugʻullanuvchilar soni 4,2 ming nafardan oshdi. Ushbu davrda advokatlar hamda jismoniy va yuridik shaxslar oʻrtasida yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida 95 mingga yaqin bitim hamda shartnoma tuzilgan. Advokatlarimiz himoya huquqini taʼminlash boʻyicha barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda.

Tadbirkorlik sohasi mamlakatimiz taraqqiyotida muhim oʻrin tutayotgan boʻgʻin boʻlib, ularning huquqlarini taʼminlashga Konstitutsiyamizda ham alohida eʼtibor qaratilgan.

Konstitutsiyada iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi kafolatlangan. Tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyat koʻrsatishi uchun qulay huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish maqsadida joriy yilning oʻtgan davri mobaynida 5 normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi hamda amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan 20 dan ortiq taklif kiritildi.

Tekshirishlarni roʻyxatga olish kitobining elektron shakli hamda mobil versiyasi

amaliyotga joriy etilgani nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish va tezkorlik bilan bartaraf etishda muhim omil bo'lmog'da. O'tgan davr mobaynida tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini ko'zlab sudlarga 16 milliard so'mdan ortiq mablag'ni undirish maqsadida 444 da'vo arizasi kiritildi. Idora va tashkilotlarning 300 noqonuniy qarori bekor qilindi. 280 dan ortiq shaxs ma'muriy, 780 dan ortiq shaxs esa intizomiy javobgarlikka tortildi.

Korxonalar Koreya Respublikasidan granulali polipropilen xom-ashyosini import qilgan. Biroq unga bu jarayonda bojxonachilar tomonidan imtiyoz qo'llanilmagan. Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha faoliyat yuritayotgan "yagona darcha" markazlarida 33 turdagi davlat xizmati ko'rsatilmoqda. Joriy yilning 1-aprelidan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi. Endilikda internet tarmog'i orqali 24 soat davomida 30 daqiqa ichida ushbu tizim orqali tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tish mumkin. "Yagona darcha" markazlari orqali o'tgan davrda yuz mingdan ziyod davlat xizmatlari ko'rsatildi. Avtomatlashtirilgan tizim orqali 120 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mamlakatimiz Jahon bankining "Doing Business – 2018" qulay biznes muhitini yaratish reytingining korxonalarini ro'yxatdan o'tkazishda 11-o'rinni egallab, yetakchi davlatlar guruhiga kiritildi.

Birgina shu yilning o'zida adliya organlarini takomillashtirishga qaratilgan 7 ta qaror va farmon qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining qarori bilan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash maqsadida yuridik xizmatlarning roli va javobgarligi kuchaytirildi. Davlat organlari va tashkilotlarida, jumladan, ularning hududiy tuzilmalarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan minimal me'yor va mezonlarga asosan majburiy tartibda yuridik xizmatlar tashkil etildi.

Har bir davlat organi va tashkilotining yuristlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish masalalari majburiy tartibda adliya organlari bilan

kelishilishi belgilandi. Unga muvofiq, adliya organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining 528 nafar yuristini lavozimga tayinlash va 189 nafarini lavozimdan ozod etish masalasi o'rganib chiqildi. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatiga birinchi bor tayinlangan 119 nafar yuristi adliya organlarida stajirovka o'tadi. Amaliyotda birinchi marta davlat organlari va tashkilotlarining yuristlariga adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalari berilishi belgilab qo'yildi. Unga asosan yuridik xizmat xodimlarining 396 nafariga martaba darajalari berildi. Bu orqali ijtimoiy himoya mustahkamlandi.

Mamlakatimizda huquqiy axborotni tarqatish sohasi bo'yicha ham sezilarli qadamlar qo'yilganini aytib o'tish joiz, deb bilaman. Shu maqsadda, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun hamda Prezidentimiz qaroriga asosan Adliya vazirligi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Shu bilan birga, vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ijrochilarga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlash vazifasi yuklatildi. Bu esa, o'z navbatida, qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng aholiga tushuntirishga hamda tegishli qonun hujjatlari matnidan hech qanday to'siqlarsiz foydalanishga imkon yaratadi. Qaror bilan Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengashining hududiy komissiyalarini tashkil etish belgilangani diqqatga sazovor.

Adliya vazirligi hamda davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida qonun hujjatlarini tezkor tarqatish maqsadida himoyalangan aloqa kanallari (VPN) orqali idoralararo elektron hamkorlik tizimi tashkil etildi.

Birinchi bosqichda joriy yilning 1-yanvaridan 3 noyabriga qadar qabul qilingan 1 ming 883 normativ-huquqiy hujjat "E-xat" elektron pochta tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlarining tizimiga kiruvchi 12,5 ming quyi idoraga tarqatilib,

561 ming xodim e'tiboriga yetkazildi. Qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 700 mingdan ortiq targ'ibot tadbiri o'tkazilib, unda 17 millionga yaqin aholi ishtirok etdi. "E-sud" tizimi ham mamlakatimizda 2017 yilda joriy etilgan ijobiy yangiliklardan biri bo'ldi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning shiddat bilan rivojlanib borayotgani barchamizga ma'lum. Bu borada ham huquqiy axborotni internet tarmog'i orqali yetkazib berish amaliyoti keng yo'lga qo'yildi. Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlarining milliy bazasi – "Lex.uz"ning normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy manbalari qatoriga kiritilgani aholiga huquqiy axborot yetkazib berish borasidagi ishlarni yanada jonlantirdi.

Hozir o'zbek va rus tillaridagi 43 mingdan ortiq hujjat jamlangan ushbu bazadan bir kunda 15 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxs bepul foydalanmoqda. Aholini tezkor tarzda huquqiy axborot bilan ta'minlash, samarali va konstruktiv muloqotni tashkil qilish, bunda nafaqat adliya organlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, balki fuqarolar qonunchilikdagi o'zlarini qiziqtirgan savollarga onlayn tarzda javob olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida Facebook ijtimoiy tarmog'ida "Adliya bilan muloqot" guruhi va "Telegram" messenjerida Adliya vazirligining "Huquqiy axborot" kanali faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu tarmoq xizmatlariga hozirda 20 mingdan ortiq fuqaro a'zo bo'lgan. Hozirgi kunda vazirlik veb-sayti va www.lex.uz saytida "onlayn-maslahatchi" xizmati faoliyatini kengaytirish, shuningdek, veb-saytda huquqiy axborot "step by step" shaklida joylashtirilgan maxsus rukn yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalq bilan ochiq muloqot qilish davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari tubdan takomillashishiga, fuqarolarning davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan islohotlar xalqimiz turmushining yanada yuksalishi, mamlakatimiz obodligi va taraqqiyotini ta'minlash, Vatanimizning dunyo hamjamiyatida obro'-e'tiborini yuksaltirish va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda yuksak samaralar bermoqda. Shu an'anani davom ettirib, davlatimizning yangi rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2017 yilni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomladilar va bu shior xalqimiz tomonidan xursandchilik bilan qabul qilindi. Yilning bunday nomlanishi zamirida davlat organlarining xalq bilan munosabatlarini yanada mustahkamlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqlarini kafolatlash va mavjud muammolarni oqilona hal etish maqsadlari mujassamdir. Bosh Qomusimizning 2-moddasida, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", - deyilgan. Demak, ushbu yilda hukumatimizning oddiy fuqarolar bilan muloqotlari yanada kengroq yo'lga qo'yiladi. Bu muloqot vositasida barcha vatandoshlarimizning haq-huquqlari himoya qilinishiga, bir so'z bilan aytganda, jamiyatda adolat qaror topishiga yanada ko'proq ahamiyat qaratiladi. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, uning dardu-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. Mamlakatimiz Prezidentining yangidan qabul qilingan "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shu yo'nalishdagi ishlarning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Farmonda keksalarni ijtimoiy himoyalash, sog'lomlashtirish, ularning faolligini oshirish, jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu xayrli ish Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning: "Kimki kichiklarimizga rahm qilmasa, keksalarimizning haqqini, qadr-qimmatini bilmasa, u musulmon ummati emasdir", degan hadisi shariflariga hamohangdir. Davlatimizning bunday e'tibor va g'amxo'rligi xonadonimiz farishtalari bo'lgan nuroniylarimiz kuchiga kuch, umrlariga umr qo'shadi, ularga juda katta ruhiy madad bo'ladi. Zero, qariyalarimiz xizmatini

qilish, ularning duosini olish biz uchun oliy saodatdir. Bular hali ulkan ishlarning debochasi xolos. Bugungi kunda hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev el manfaatini barcha narsadan ustun qo‘yib, fuqarolarimizning og‘irini yengil qilishga tinmay harakat qilmoqda. Birgina “virtual qabulxona” joylarda yangidan tashkil qilingan “Xalq qabulxonalarini” orqali minglab yurtdoshlarimizni qiynab kelgan muammolarining o‘z yechimini topgani va topayotgani buning yaqqol dalilidir. Aslida, odamlar orasida adolat bilan hukm yurgizish Alloh taoloning buyrug‘i hisoblanadi. Bu haqda Qur’oni karimda shunday xabar berilgan: “Darhaqiqat, Alloh omonatni o‘z egalariga topshirishingiz va odamlar o‘rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizga buyurar...” (Niso surasi, 58-oyat). Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim biror mo‘mindan dunyo mashaqqatlaridan birini aritsa, Alloh undan oxirat mashaqqatlaridan birini aritadi. Banda, modomiki, do‘stiga yordam berish (yo‘li)da bo‘lar ekan, Alloh uning madadkori bo‘ladi”, – dedilar” (Imom Termiziy rivoyat qilgan). Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi. Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzuriga kelib: “Allohga eng sevimli kishi kim?” va “Allohga eng sevimli amal qaysi?” – deb so‘radi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Allohga eng sevimli kishi, odamlarga ko‘proq manfaati tegadigan kishi. Allohga eng sevimli amal musulmonning qalbiga xursandchilik kiritish. Yoki uning tashvishini aritish. Yoki qarzini o‘tash. Yoki undan ochlikni ketkazish. Men bir do‘stimning ehtiyoji uchun yurishim, ushbu masjid – Masjidun nabaviyda e’tikof o‘tirishimdan yaxshiroqdir”- dedilar. Jobir (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Odamlarning eng yaxshisi ularga ko‘proq manfaati tegadiganidir”, deb aytdilar. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bu hadislarida inson so‘zini keltirishi bejiz emas. Inson so‘zi umumiy ma‘noni ifoda etadi. Jamiyatda yashaydigan barcha er va ayol, yosh va qariyalarga xalq deb murojaat qilinadi. Demak, hadisdagi inson so‘zi xalqlar ichida bo‘lgan eng yaxshi insonga nisbatan aytilgan. Hadisda ularga ko‘proq manfaati tegadigani deyilmoqda. Insonlar bir-biri bilan hamjihat, hamkor bo‘lsalar, ularning manfaati

bo‘ladi. Insonlar odamlarga aralashib ziyoli kishi o‘zining ilmi bilan, boshqa kasb egalari esa o‘zlarining iqtidorlari bilan boshqalarga ko‘makdosh bo‘lsa, yaxshilik ustiga yaxshilik bo‘ladi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) aytdilar: “Kim bir qiynalib qolgan kishining ishini oson qilsa, Alloh unga dunyo-yu oxiratini oson qiladi. Modomiki, banda o‘z og‘a-inisiga ko‘mak berish payida bo‘lar ekan, Alloh unga ko‘mak berish payida bo‘ladi”. Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning bu so‘zlaridan aniq bo‘ladiki, insonlarga manfaat yetkazish eng katta savob ekan. Joylarda borayotgan islohatlar jarayoni bilan yaqindan tanishish, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, va xalq bilan muloqot qilish maqsadida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev viloyatlarga safarlar uyushtirmoqda. Joriy yilning 20 yanvar kuni Yurtboshimizning Qoraqolpog‘iston Respublikasiga qilgan tashriflari ham shunday ezgu maqsadlarning amaliy ifodasi bo‘ldi. Prezidentimiz tashrif chog‘ida “Imom eshon Muhammad” jome masjidida bir guruh nuroniy otaxon hamda faxriylar bilan uchrashdilar. Prezidentimiz ushbu masjid atrofida muhtasham majmua, kutubxona barpo etish va boshqa bir qator xayrli ishlarni amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlarni berdilar. Xuddi shunday tashriflarning biri shu yilning 10 fevral kuni Surxondaryo viloyatiga bo‘ldi. Shuningdek, Islom dini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug‘ allomalar, aziz-avliyolar vatani bo‘lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o‘rtasida keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini yanada kuchaytirish maqsadida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish kerakligini ta’kidladilar.

Yurtboshimiz Qashqadaryo viloyatiga qilgan safarlari chog‘ida shu yurtdan yetishib chiqqan ulug‘ vatandoshimiz Abul Mu‘in an-Nasafiy hazratlarining “Tabsirat al-adillati fi ilm al-kalom” (Kalom ilmida dalillar tilga kirganda), “At-

tamhid li-qavoid at-tavhid fi ilmi kalom” (Kalom ilmidagi tavhid qoidalari uchun yagona kitob) asarlari yoshlarning bilimi yanada boyishida, ularning turli yot oqimlarga kirib qolishidan asrashda, el-yurtiga xizmat qiladigan komil, fidoiy insonlar bo‘lib yetishishida muhim asarlar ekanini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Davlatimiz Rahbari “Abul Mu’in an-Nasafiy” ziyoratgohida qayta qurilish ishlarini belgilangan loyiha asosida olib borish, ziyoratgoh hududida muhtasham kutubxona tashkil etishni ham taklif etdilar. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatiga safari chog‘ida tabarruk maskanlardan biri Bahouddin Naqshband me’moriy majmuini ziyorat qildi. Prezidentimiz mazkur yodgorlik majmuasini yanada obod maskanga aylantirish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi. Qolaversa, ko‘hna va boqiy Buxorodagi yodgorlik, obidalarining har bir dona g‘ishtini o‘z holida tiklash, ehtiyot qilish va kelajak avlodga yetkazish lozimligini ta’kidladi. 2017- Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24-yilligi munosabati bilan 7-dekabr kuni “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat, san’at va sport namoyandalari, keng jamoatchilik, yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy davlatlarning elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari ishtirok etdi.

Insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan islohotlar xalqimiz turmushining yanada yuksalishi, mamlakatimiz obodligi va taraqqiyotini ta’minlash, Vatanimizning dunyo hamjamiyatida obro‘-e’tiborini yuksaltirish va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda yuksak samaralar bermoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2016-yil mamlakatimizda **Sog‘lom ona va bola yili**, deb e’lon qilingan edi. Bu borada ishlab chiqilgan Davlat dasturi asosida ona va bola salomatligini mustahkamlash, jismonan sog‘lom, yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Shavkat Mirziyoyev Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan har yangi yilga muayyan nom berish yaxshi an’anaga aylangani, bu borada alohida davlat dasturi ishlab chiqilib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini qayd etdi. Mustaqilligimiz asoschisi boshlab bergan bu an’anaga binoan kirib kelayotgan

yangi – 2017-yilni mamlakatimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb eʼlon qilishni taklif etdi. Bu taklif yigʻilganlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan qoʻllab-quvvatlandi. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarning davlat statistika organlarida ijrosi toʻgʻrisida 2017 yil yanvar-dekabr holatiga maʼlumot¹. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmoni hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida Davlat statistika qoʻmitasining 2017 yil 13 fevraldagi 5-sonli buyrugʻi qabul qilingan.² 2017 yil 21 fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosini taʼminlash boʻyicha Davlat statistika qoʻmitasining kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan. Ushbu kompleks chora-tadbirlar rejasining har bir bandi boʻyicha tegishli masʼul ijrochilar belgilangan va ijrosi nazoratga olingan. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosi yuzasidan 2017 yilning yanvar-dekabr oylari davomida Davlat statistika qoʻmitasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat dasturining 10-28-bandlarining ijrosini taʼminlash boʻyicha,

¹<https://stat.uz/uz/131-gos-programmy-uz/1250-2017-yil-xalq-bilan-muloqot-va-inson-manfaatlari-yili>

²Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida. Toshkent “Adolat” 2017

Davlat statistika qo`mitasi tomonidan 150 ta O`zbekiston Respublikasi qonunlari va Hukumat qarorlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etilishi ta`minlandi. Davlat dasturining 18, 27-bandlarining ijrosini ta`minlash maqsadida, Davlat statistika organlari faoliyatining ochiqligini ta`minlash, inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik shaxslarga aloqador axborotni taqdim etishning zamonaviy shakllarini amalga kiritish bo`yicha muhim masalalar, Qo`mita markaziy apparatida va hududiy statistika organlarida Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari ishtirokida keng muhokama qilindi va ushbu muhokamalarda 810 nafar xodim ishtirok etdi. Davlat dasturining 19-bandi ijrosini ta`minlash bo`yicha, Davlat statistika qo`mitasining Axborotlarni tarqatish, xalqaro axborot almashuv va jamoatchilik aloqalari boshqarmasi tomonidan davlat statistika organlari faoliyatining muhim jihatlari yuzasidan matbuot anjumanlarini o`tkazish bo`yicha 2017 yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq, 1 may kuni Milliy matbuot markazida “Zamonaviy usullar va metodikalarni joriy etish, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari statistik ko`rsatkichlarini hisobga olish va tahlil etish tizimini takomillashtirish hisobiga statistik ma`lumotlarning sifati hamda shaffofligini oshirish yo`nalishlari va istiqbollari haqida” mavzusida, 26 dekabr kuni “Davlat statistika tizimida statistika faoliyatini tashkil etish samaradorligini tubdan oshirish, statistika axborotlari sifatini va ularni tarqatish tizimini yaxshilash bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to`g`risida” mavzusidagi matbuot anjumani o`tkazildi. 2017 yil 18 avgust kuni Milliy matbuot markazida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 2017 yilning ikkinchi yarim yilligida “Mamlakatimiz hayotidagi muhim ahamiyatga molik masalalar bo`yicha o`tkaziladigan matbuot anjumanlarining yagona rejasi” asosida “Mustaqillik yillarida Davlat statistika tizimiga axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda tadbirkorlik sub`ektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan islohotlar” mavzusida matbuot anjumani o`tkazildi. Davlat dasturining 26-bandi ijrosini ta`minlash maqsadida, Davlat

statistika qo`mitasida Yagona idoralararo “Kadrlar” zamonaviy axborot tizimidan foydalangan holda Qo`mita markaziy apparati xodimlari va hududiy statistika organlari xodimlarining shaxsiy ma`lumotlari kiritib borildi. Shu bilan birga, 2017 yilning 27-29 noyabr kunlari Toshkent shahar va Toshkent viloyati statistika boshqarmalarining Kadrlar bo`limi boshliqlariga Yagona idoralararo “Kadrlar” zamonaviy axborot tizimidan foydalanish, unga xodimlarning shaxsiy ma`lumotlarini kiritish bo`yicha tegishli tushuntirishlar berildi va bosqichma-bosqich barcha hududiy statistika organlarining Kadrlar bo`limi boshliqlariga bunday tushuntirishlar berib boriladi. Davlat dasturining 67-bandi ijrosini ta`minlash maqsadida, 2017 yilning 24 martidan boshlab Davlat statistika qo`mitasining rasmiy sayti (www.stat.uz)da “Raisning virtual qabulxonasi” ishga tushirilgan bo`lib, hozirgi kunda uzluksiz faoliyat yuritmoqda. Davlat dasturining 68-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlash, davlat statistika organlariga kelib tushayotgan murojaatlarni qonun hujjatlari talablari asosida ko`rib chiqish ishlarini takomillashtirish va tizim organlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida, 2017 yil 11 aprelda Davlat statistika qo`mitasining 56-k-sonli buyrug`i qabul qilingan. Mazkur buyruqqa asosan Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparatida Murojaatlar bilan ishlash va ijro nazorati boshqarmasi tashkil etilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 iyuldagi “O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3165-son qaroriga asosan, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi qayta tashkil etilgan. Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo`limi tashkil etilgan. Davlat dasturining 70-bandi ijrosini ta`minlash maqsadida, Davlat statistika qo`mitasining rasmiy saytida “Onlayn maslahat” ruknini bosqichma-bosqich joriy etish bo`yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va joriy yilning 1 martida tasdiqlangan. Shu bilan birga, ochiq kod orqali “Onlayn

maslahat” maxsus dasturiy ta`minot tizimiga kirish bilan bog`liq o`rganish ishlari amalga oshirilgan va Davlat statistika qo`mitasining rasmiy saytida Mibew Messenger 2.2.0 erkin dasturiy ta`minoti negizida “Onlayn-maslahat” tizimi joriy qilingan. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida Davlat statistika qo`mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni 2059 tani tashkil etgan. Shundan 46 tasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 105 tasi Davlat statistika qo`mitasi raisining virtual qabulxonasi orqali, 202 tasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan, 1592 tasi to`g`ridan -to`g`ri kelib tushgan murojaatlardir. Kelib tushgan murojaatlar Qo`mita rahbariyati tomonidan nazoratga olinib, ularning barchasiga o`z muddatida to`laqonli javob yo`llanishi ta`minlangan. Davlat statistika organlarida murojaatlar bilan ishlash bo`yicha olib borilayotgan tadbirlarning natijalari tegishli mas`ullar tomonidan tizimli tahlil va nazorat qilingan holda umumlashtirilib. Qo`mitaning kengaytirilgan Hay`at yig`ilishlarida keng muhokama qilinib borilgan. Davlat dasturining 71-bandi ijrosini ta`minlash maqsadida, Davlat statistika qo`mitasi tizimi xodimlari o`rtasida yuksak ma`naviy muhitni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan milliy g`oya targ`ibotini va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan 2017 yilning 6 martida tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo`mitasi tizimida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida xodimlarning ma`naviy-ma`rifiy, g`oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashini yanada oshirish, siyosiy va huquqiy bilimni rivojlantirish maqsadida 118 ta davra suhbatlari tashkil etildi. Davlat dasturining 71-bandi ijrosini ta`minlash maqsadida, Davlat statistika organlari tomonidan, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tavsiflovchi statistik kuzatuvlar tizimli ravishda amalga oshirildi va statistik axborotlar hamda tahliliy ma`lumotlar Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga belgilangan muddatlarda taqdim etib borildi. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida davlat boshqaruvi organlarining 82 ta, yuridik va jismoniy shaxslarning 109 ta,

korxonalar va tashkilotlarning 179 ta so'rovlariga asosan statistik ma'lumotlar taqdim etildi. Davlat dasturining 113-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistika organlarida tashkil etilgan Jamoatchilik maslahat kengashlari tomonidan har chorakda, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qulay sharoitlar yaratish va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining ustuvorligini ta'minlash borasida davlat statistika organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 46 ta yig'ilishlar tashkil etilib, ushbu yig'ilishlarda, tadbirkorlik sub'ektlaridan kelib tushayotgan murojaatlar, ularda ko'rilayotgan masalalar, har bir murojaatning o'z vaqtida, qonun talablari asosida, puxta va adolatli ko'rib chiqilishini hamda ularda keltirilgan masalalarni amaliy hal etilishini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi. Davlat dasturining 174-bandi ijrosi yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda nazorat qiluvchi organlarning kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini va ular tomonidan o'tkaziladigan rejali tekshirishlar sonini yanada qisqartirish bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Davlat dasturining 187-bandiga muvofiq, O'zbekistonning ob'ektiv reyting ko'rsatkichlarini egallashi va ulardagi mavqeni oshirish uchun talab qilinadigan statistik hamda boshqa ma'lumotlarning xalqaro hisobotlarda chop qilinishiga doir cheklovlarni bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlash maqsadida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan davlat statistika organlarining faoliyati tanqidiy o'rganildi, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tajribasi va xalqaro statistik tashkilotlarning statistika faoliyatini tashkil qilish masalalari bo'yicha tavsiyalari tahlil qilindi, iqtisodiyot tarmoqlari va xududlar ko'rsatkichlarini statistikada aks ettirishda qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar qayta ko'rib chiqildi. Statistika organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining topshirig'iga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish va uning funktsiyalarini kengaytirishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va 2017 yilning 2 iyunida Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Buning uchun mazkur Dasturga xalqaro tashkilotlarning, jumladan BMTning Statistika bo`limi, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining statistika bo`limi, YUNESKOning statistika instituti, FAO, ESKATO, MDH Statistika qo`mitasining sanoat, xizmatlar, qishloq xo`jaligi, transport, demografiya, ta`lim, innovatsiya sohalari va milliy hisoblar bo`yicha 17 ta savolnomalarini to`ldirish yo`li bilan O`zbekiston to`g`risidagi statistik ma`lumotlarni xalqaro tashkilotlarning elektron ma`lumotlar bazalari va maxsus nashrlarida joylashtirish bo`yicha tadbirlar kiritilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “O`zbekiston Respublikasi bo`yicha iqtisodiy va moliyaviy ma`lumotlarning qulayligi va ochiqligini ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi F-5054-son farmoyishi ijrosini ta`minlash maqsadida Davlat statistika qo`mitasi tomonidan, 2017 yilning 14 sentyabrida maxsus buyruq va 25 sentyabrida kompleks chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan. Bundan tashqari, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy ko`rsatkichlarning Xalqaro valyuta fondi standartlariga mos kelishi yuzasidan inventarizatsiya o`tkazish ishlarini tashkillashtirish hamda doimiy ravishda ishlarni tizimli yo`lga qo`yish maqsadida, masalaga taalluqli vazirlik va idoralar bilan birgalikda joriy yilning 21 sentyabr kuni muhokama o`tkazilib, Idoralararo ishchi guruhi tarkibi tuzildi va uni tasdiqlashni so`rab Vazirlar Mahkamasiga xat yuborildi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 2 oktyabrda 02/1-2305-son bilan Idoralararo ishchi guruhi tarkibi tasdiqlandi. 2017 yil 5 oktyabr kuni Qirg`iziston Respublikasi rasmiy delegatsiyasining O`zbekiston Respublikasiga tashrifi doirasida Qirg`iziston Respublikasi Milliy statistika qo`mitasi bilan O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi o`rtasida statistika sohasida o`zaro anglashuv va hamkorlik memorandumi imzolandi. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida, davlat statistika organlari tomonidan, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining statistika bo`limi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi tashkiloti, BMTning Atrof-

muhitni muhofaza qilish statistika bo`limi, yuNESKOning statistika bo`limi, Jahon banki, ESKATO, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki xalqaro tashkilotlaridan va Qozog`iston Respublikasi elchixonasidan kelgan savolnomalarga asosan qishloq xo`jaligi, ekologiya, tadbirkorlik, ta`lim, sog`liqni saqlash, migratsiya va transport sohalari bo`yicha respublikaning rivojlanishini aks ettiruvchi ma`lumotlar taqdim etildi. Shu bilan birga, 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida BMT Statistika bo`limi, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, YUNISEF, FAO, Yevrostat, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa erkin savdo uyushmasi, Avstriya Milliy banki xalqaro tashkilotlari tomonidan Avstriya, Vengriya, Shveysariya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Koreya, Serbiya, Tailand, Turkiya, Belarus, Litva, Chernogoriya, Gruziya, Qozog`iston, Ozarbayjon davlatlarida tashkil etilgan 40 ta xalqaro ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, seminarlar va o`quv kurslarida davlat statistika organlari xodimlari xalqaro tajribalarni o`rganish maqsadida ishtirok etishdi. Mazkur Davlat dasturining 198-bandiga muvofiq, mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o`quv kurslarini o`tkazish bo`yicha nodavlat ta`lim muassasalari faoliyatini rag`batlantirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish bo`yicha tuzilgan ishchi guruhida Qo`mitaning mas`ul xodimi joriy yilning aprel-iyul oylarida muntazam ishtirok etdi. Davlat dasturining 199-bandiga muvofiq, Qo`mita tomonidan har bir tuman va shaharlar bo`yicha bilim va ta`lim sohalari kesimida kasb-hunar kollejlari soni, ulardagi o`quvchilar soni, qabul qilinganlar soni, bitiruvchilar va kutilayotgan bitiruvchilar soni to`g`risidagi statistik ma`lumotlar tayyorlanib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga taqdim etilgan. Davlat statistika tizimida ko`p yillar ishlagan va nafaqaga chiqqan kam ta`minlangan, yolg`iz, nogiron va bemor qariyalar hamda ishlovchi pensiya yoshidagi xodimlarni qo`llab-quvvatlash, rag`batlantirish, ularning madaniy hordiq chiqarishlariga va sog`liqlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida pensiya yoshidagi xodimlarning 212 nafariga

97,9 mln so`m miqdorida moddiy yordamlar va 143 nafariga 13,6 mln so`m miqdorida esdalik sovg`alar berildi. Tizimda uzoq yillar mehnat qilgan 232 nafar keksa faxriylarning teatr, kontsert va boshqa madaniy tadbirlarga tashrifi tashkil etildi, 74 nafar keksalarning respublikaning tarixiy shaharlariga, muqaddas joylarga va ziyoratgohlarga sayohati tashkil etildi. Tizimda ishlovchi pensiya yoshidagi xodimlarning 118 nafari tibbiy ko`rikdan o`tkazildi va 7 nafari yuqumli kasalliklarga qarshi vaktsinatsiya qilindi.

Keksa avlod vakillarining bilimi va tajribasidan foydalanish maqsadida mehnat jamoalarida “Avlodlar uchrashuvi”, “Kasbim-faxrim” mavzusida tadbirlar tashkil etildi. Tizimda mehnat qilayotgan xodimlarni sog`lig`ini qayta tiklash maqsadida 34 nafar xodimga sog`lomlashtirish oromgohlariga (sanatoriylarga) imtiyozli yo`llanmalar va tizimda mehnat qilayotgan xodimlarning farzandlariga yoz mavsumida mazmunli dam olish va sog`liqlarini tiklash uchun bolalar oromgohlariga 53 ta yo`llanmalar berildi. Davlat statistika organlarida ishlovchi yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma`naviyatli, mustaqil va zamonaviy fikrlovchi, qat`iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash maqsadida, tizimda faoliyat olib borayotgan yosh xodimlar ishtirokida 134 ta davra suhbatlari va seminarlar o`tkazildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagi “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi F-5024-son farmoyishi ijrosini ta`minlash maqsadida Davlat statistika qo`mitasi tomonidan 2017 yilning 18 avgustida 65-sonli buyruq qabul qilindi. Axborotdan foydalanuvchilar, jumladan yoshlarning Qo`mita rasmiy saytining mazmuni va ko`rsatilayotgan interaktiv xizmatlardan qoniqishi yuzasidan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali so`rovlar o`tkazish bo`yicha “Feysbuk”

ijtimoiy tarmog`ida Davlat statistika qo`mitasining sahifasi ochildi va hozirgi kunga kelib asosiy foydalanuvchilar soni 200 tadan oshdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”ning ijrosini ta`minlash bo`yicha Davlat statistika qo`mitasining kompleks chora-tadbirlar rejasi

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me`yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tadbirkorlik sub`ektlariga tushuntirish hamda ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo`lgan kamchiliklarni oldini olish borasida 2017 yil davomida profilaktika ishlarini amalga oshirish bo`yicha Chora-tadirlar rejasi¹.

2017-yil – xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish haqidagi farmoyishini imzoladi.

Bir oy muddat ichida tayyorlanadigan ushbu dasturdan maqsad, "mamlakatdagi demokratlashtirish jarayonlari samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, kishilarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta`minlash, bunda davlat idoralari mas`uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo'lga qo'yishda yangi samarador vositalar va usullarni joriy etish, "Inson manfaatlari - barchasidan ustun" shiori ostida ish olib borish hisoblanadi. Dasturni ishlab chiqish va ijrosini ta`minlash uchun mamlakat bosh vaziri Abdulla Oripov boshchiligida komissiya tashkil etiladi. Ishchi guruh vazirliklar, idoralar, joylardagi davlat muassasalari, jamoatchilik birlashmalari va

¹http://archive.uztelecom.uz/uz/company/social/the_people_and_human_interests

nodavlat tashkilotlar tomonidan bildirilgan takliflardan umumiy xulosa qilib, bu farmoyish ijrosi bilan shug'ullanadi.

2017 yilgi davlat dasturining birinchi galdagi vazifalari:

- Dastur joylarda qabul qilingan qonunlar, buyruqlar va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, davlat organlarining o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish bo'yicha faoliyatining samaradorligi ustidan parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni shakllantirish;
- Dastur doirasida aholi va yuridik shaxslar o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va uslublarini joriy qilish, barcha hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisob berish tizimini joriy etish;
- Joylarda "xalq qabullari"ni joriy etishning tashkiliy-amaliy, huquqiy, moddiy-texnik va moliyaviy asoslarini belgilash, fuqaro murojaatlari eng ko'p kuzatiladigan sohalardagi byurokratik to'siqlarni va muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini ta'minlash;
- Aholiga talab katta bo'lgan davlat xizmatlarini «yagona darcha» tamoyili bo'yicha bir muassasa orqali ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. Davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari o'rnini kengaytirish, «Elektron hukumat» tizimini samarali rivojlantirish borasidagi choralar;
- Aholining huquqiy madaniyati va moliyaviy-iqtisodiy savodxonligini oshirish hamda fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash tizimini shakllantirish bo'yicha tadbirlar ham davlat dasturiga kiritiladi.
- Iqtisodiyotni boshqarishdagi davlat rolini kamaytirish choralarini ko'rish, davlat boshqaruv idoralari vakolatlarini optimallashtirishga qaratilgan ma'muriy islohotlarni ishlab chiqishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, davlat

xizmatchilarining moddiy va maxsus ta`minotini takomillashtirish, professional mutaxassislar tayyorlashga e`tibor qaratish;

- Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotini ta`minlash hamda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar;
- Hududlarda tijoriy banklarning faol ishtiroki bilan yangi ish joylari tashkil qilish, shuningdek, ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalar miqdorini ko'paytirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish;
- Muhandis-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi sohalarini yangilash va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi;
- Ta`lim tizimi, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks choralarni amaliyotga tatbiq etish;
- Diniy e`tiqodi va qaysi millatga mansubligidan qat`i nazar mamlakatning barcha fuqarolariga teng huquq va imkoniyatlar mavjudligini ta`minlash, mahalla instituti, ayollar va yoshlar tashkilotlari, faxriylar birlashmalarining mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta`minlashdagi rolini kuchaytirish.

II. “2017-yil Inson manfaatlari va xalq bilan muloqot yilida xalq qabulxonalari tezkor davlat xizmatlari agentligining mening fikrim sayti”ning tashkil etilishi.

2.1. Xalq qabulxonalari faoliyatining tashkil tilishi.

O‘ZBEKISTONDA XALQ BILAN MULOQOT QILISH VA MUROJAATLAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA YANGI TIZIMGA ASOS SOLINDI

Inson hayotga bir marta keladi, baxtli yashashni istaydi va uning bunga to‘la haqqi bor. Xalqimizning huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ezgu sa’y-harakatlaridan ko‘zlangan maqsad-muddao ham aslida shu: bugungi kunimiz kechagidan, ertamiz bugungi kunimizdan ko‘ra baxtli va farovon bo‘lishiga erishish. Ana shunday ulug‘ va xayrli maqsadlarimizning ro‘yobga chiqishi ko‘p omil va mezonlarga bog‘liq. Ammo ularning ichida hayotimizda adolatni qaror toptirish eng zaruriy shart hisoblanadi. Zotan, ijtimoiy adolat ta’minlangan davlatda xalqning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlikka intilishi va ishtiyoqi hosil beraveradi.

Shu ma’noda mustaqil Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida yana bir yangi davr, yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi, deyishga barcha asosimiz bor. Strategik maqsadlarimiz aniq va ravshan – demokratik, insonparvar davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish, pirovardida, xalqimizni hayotdan rozi qilish, uning yanada farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish. Bunday yuksak marralarga xalq bilan muloqot qilib, odamlarning ichiga kirish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta’minlash orqaligina erishish mumkin.

Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq bilan faol va ochiq muloqot olib borish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash borasida asos solgan yangi tizim – Xalq qabulxonalari instituti ijtimoiy adolatni ta’minlash borasida o‘zbekona hayot falsafasi va milliy davlatchilik maktabiga xos barhayot an’analarining yangi taraqqiyot bosqichi bo‘lish bilan birga, mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish yo‘lidagi strategik maqsadlarga erishishning qudratli vositasiga aylanmoqda¹.

Kengashli to‘y tarqamas

Xalqimizda ezgu bir an’ana bor: har qanday ishni boshlashdan avval maslahat qilinadi. Bunda kayvoni-yu keksalardan, yoshlardan ham fikr so‘raladi. Turli mulohazalar tinglanadi, munosabatlar hisobga olinadi. Har bir qarash, taklif chuqur muhokama qilinadi – do‘ppini boshdan olib qo‘yib, atroflicha kengashiladi. Aql – tarozi, ko‘ngil qozi bo‘ladi: ko‘riladigan tadbirning foydasi va zarari taroziga qo‘yilib, obdon tortiladi. Aqlli tadbirlar taqdirga mos keladi: eng to‘g‘ri qaror, adolatli yechim ana shunday muhokamalar asnosida tanlanadi. Bu – haqiqat bahslarda tug‘iladi, degani.

Bunday qadriyatlar yo‘q joydan o‘z-o‘zicha paydo bo‘lib qolmagan, albatta. Zero, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlari aniq tabiiy, tarixiy va ijtimoiy omillar negizida vujudga keladi, rivoj topadi. Shu ma’noda jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi xalqimiz uchun umr qoidasiga aylanib ketgani bejiz emas. Ya’ni, zaminimizda istiqomat qiladigan odamlarning bir oila, bir mahalla, bir xalq bo‘lib yashashi obyektiv zarurat – tabiatning o‘zi, hayotning o‘zi bizni shu ruhda tarbiyalagan.

Bunday hayot tarzi, tabiiyki, o‘zaro muloqotga, muloqot esa qizg‘in muhokama – kengashga, har bir masalada adolatli va oqilona hukmga yo‘l ochadi. Xalqimiz bunday qadriyatlarga asoslanib, avvalo, ijtimoiy adolatga intilib kelgan.

¹<https://mfa.uz/uz/press/news/2017/03/10363/>- O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi

Kuch – adolatda. Sohibqiron bobomiz Amir Temur kuch-qudrat adolat, hamjihatlik va hamkorlikda mujassam ekanini anglab-anglatib yashagan. U zotning davlat muhrida bitilgan **“Kuch – adolatda”** hikmati haqiqatparvarlik va rostlik inson kuchiga kuch qo‘shishi, o‘z navbatida, kuchli shaxs hamisha haqgo‘y bo‘lishini anglatadi.

«Odamiy ersang, demagil odami, onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» hikmatini hayot qoidasiga aylantirgan Alisher Navoiy ham, «Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q», deya taqdir va tadbirni birlashtirgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham oddiy odamlar bilan doimiy muloqot qilib, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishni oliy maqsad, hayot mazmuni, deb bilgan. Bu borada necha-necha avlodlarga o‘rnak va ibrat bo‘larli buyuk meros qoldirgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asos solgan xalq bilan muloqot, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha yangi tizim, Xalq qabulxonalari instituti o‘zbek davlatchilik maktabiga mansub adolatparvarlik, haqiqatni amalda ta‘minlash borasidagi ana shunday ulug‘ an‘analar ildizlaridan quvvat oladi. Davlatimiz rahbari bugun kuyib-yonib barchamizni xalq qalbiga quloq solishga, odamlarning dard-tashvishlarini astoydil tinglashga, muammolarini hal etishda amaliy yordam berishga da‘vat etayotgani, bu borada ayrim katta-kichik amaldorlarning ongida toshday qotib qolgan eskicha qarashlarni tag-tomiri bilan qo‘porib, uning o‘rniga xalq talab va istaklari asosida ishlash prinsiplarini hayotimizda chuqur joriy qilishga qat‘iyat bilan harakat qilayotgani buyuk shoirimiz aytganidek, quchoq ochib xalq ichiga borish, uning armonlarini ushaltirish, orzularini ro‘yobga chiqarishdek ulug‘ maqsadlarga qaratilgan.

Rahbarlarga xalqning o‘zi baho beradi. 2016-yil 24-sentabrda O‘zbekiston hukumati portalida Bosh vazirning virtual qabulxonasi ochilishi murojaatlar bilan ishlash tizimini bugungi shiddatli XXI asr talablariga mos holda takomillashtirish imkonini berdi. Hukumat rahbari bilan oddiy odamlar o‘rtasida hech qanday vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘lga qo‘yildi. Shu bois ham mazkur

virtual qabulxona ishga tushgan kuniyoq mamlakatimizning turli joylaridan mingga yaqin ariza, shikoyat va takliflar kelib tushdi.

Ko'p o'tmay, barchamiz guvoh bo'ldikki, aksariyat muammolarni nisbatan qisqa vaqt ichida samarali, eng muhimi, qonun doirasida hal qilsa bo'lar ekan. Buning uchun xohish va iroda, hayotdagi o'tkir muammolarga tik qaray olish, ularni bartaraf etishning ta'sirchan yo'llarini topish talab etiladi.

Har qanday davlat rahbari ham adolatsizlik holatlari, xalqni qiynab kelayotgan og'ir muammolarni ro'y-rost kun tartibiga qo'yib, «endi, kelinglar, vaziyat shunday ekan, deya qo'l qovushtirib o'tirmasdan ana shu kamchiliklarni bartaraf etaylik», deb, bunda avvalo o'zi o'rnak va namuna bo'lib, jon-jahdi bilan bu ishga kirishavermaydi. Buning uchun insonda katta yurak, o'z xalqi, o'z Vatani taqdiri uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish tuyg'usi kuchli bo'lishi kerak.

Virtual qabulxona ochilgunga qadar ham mamlakatimizda davlat organlarining «Ishonch telefoni», Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mavjud edi. Bu sohada maxsus "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Lekin, ming afsuski, bu qonun amalda to'la ishlamaganini, uning ijrosini nazorat qilish o'z holiga tashlab qo'yilganini, aniqrog'i, bu masalaga ikkinchi darajali bir ish sifatida qaralganini bugun ochiq tan olishga majburmiz.

Davlatimiz rahbari Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida inson manfaatlarini ta'minlash uchun, avvalo, odamlar bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerakligini ta'kidlar ekan, xalqimiz dilidagi, jamiyatimizdagi og'riqli bir muammoni kun tartibiga qo'ydi: «Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi».

Shu bois yaqin-yaqingacha aksariyat odamlar o'zi yashayotgan hududlardagi mahalliy hokimiyat idoralari rahbarlarini, vazirlarni deyarli tanimasdi. Yashirib nima qildik: ko'pchilik katta-kichik rahbaru mutasaddilar oldiga arz qilib ikki-uch marta qatnagan odamga «yozuvchi», «arizaboz», «ig'vogar» tarzida boshqacha

ko‘z bilan qarar edi. Albatta, har qanday jamiyatda bo‘ldi-bo‘lmadi ishga darrov shikoyat yozadiganlar topiladi. Biroq ora-chora uchrab turadigan bunday kimsalar kasriga qolgan odamlarning shikoyatlarini ham e‘tiborsiz qoldirish – jamiyatda muammolarning ildiz otib ketishiga sabab bo‘lishi aniq-ku!

Axir kimdir umid bilan hokim yo vazirning oldiga borsa-yu, qabuliga kira olmasa, eshigida haftalab-oylab sarg‘aysa, shundan so‘ng qo‘li biror ishga boradimi? Agar biz bugun yoshlarimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan o‘zimiz shug‘ullanmasak, ularning qalbiga quloq tutmasak, bu ish bilan xorijda qarmoq tashlab o‘tirgan boshqalar shug‘ullanadi. Bu – hayotiy haqiqat. Uni ortiqcha isbotlab o‘tirishga hojat yo‘q.

Yaqin-yaqingacha «Ishonch telefoni» yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga yuborilgan murojaatlar aksariyat hollarda yana kelgan joyiga – quyi bo‘g‘indagi idora va rahbarlarga qaytarib yuborilardi. Bu murojaat yanada pastga – yaqinda ishga olingan va tajribasiz xodimning chekiga tushgach, ahvolni o‘zingiz tasavvur qilavering. Aholi quyi bo‘g‘indagi ayrim rahbarlar qilmishidan arz qilsa-yu, bu murojaat ko‘rib chiqish uchun yana ularning o‘ziga borib tushsa, oddiy fuqaro dodini kimga aytishi, qaysi ostonaga bosh urib borishi kerak? Axir u amaldordan osh-non so‘rayotgani yo‘q-ku! Uning talabi, xohish-istaklari juda oddiy, hayotiy talablar. Eng muhimi, aksariyat hollarda ular haqli va adolatli talablar.

Suv tomib-tomib toshni yemiradi yo zang asta-sekin har qanday mustahkam po‘latni ham chiritadi. Shu ma’noda aholi murojaatlari o‘z vaqtida qonuniy va samarali hal qilinmasa, ular yig‘ilib-yig‘ilib, o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Shavkat Mirziyoyev Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati– O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi «Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir» nomli ma‘ruzasida «xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi. Bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga birinchi navbatda ular boshqarayotgan hududdagi

aholidan tushayotgan murojaatlar soni, ularning xalq ichida yurishi, mavjud muammolarning amaliy yechimiga qarab baho beriladi. Qisqa qilib aytganda, rahbarlarga xalqning o'zi baho beradi», deb ta'kidladi.

Prezidentimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2017-yilni yurtimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e'lon qilarkan, «davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishimiz darkor», deb uqtirib o'tdi.

Mana, ko'p o'tmay, xalqimiz bu g'oya va tashabbuslarning amaliy natijalarini o'z hayotida ko'rmoqda, sezmoqda: davlatimiz rahbari barchaga o'rnak ko'rsatib, hududlarga safarlari davomida chekka qishloq va ovullargacha kirib borib, ijtimoiy soha obyektlari, oddiy odamlar xonadonlarida bo'lib, yuzaga kelgan real vaziyat, aholining turmush sharoiti bilan yaqindan tanishmoqda, muammolarni bartaraf qilish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar bermoqda. Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, senatorlar, davlat organlari rahbarlari va mas'ul xodimlari ham joylarga chiqib, asl holatni o'rganmoqda, mavjud xato va kamchiliklardan kelib chiqib, o'z faoliyatini tahliliy-tanqidiy ko'rib chiqishga urinmoqda. Barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining xalq oldida hisobot berish tizimi joriy etildi.

Bu uchrashuvlardan dastlabki xulosalar nima? Avvalo, odamlar ongida mudrab yotgan tafakkur uyg'onmoqda, tadbirkorlik va bunyodkorlik ishtiyoqi yanada kuchaymoqda. Ular o'z fikr-mulohazalari, o'ylari, dard-tashvishlari, orzu-armonlari hatto Prezident darajasida qiziq, muhim va ahamiyatli ekanini anglab yetmoqda. Bugun barchamiz amin bo'ldikki, jamiyatimizdagi asosiy muammo va kamchiliklar quyi bo'g'inda – pastda. Ildizlari sog'lom daraxt ko'kka bo'y cho'zib, hosil berganidek, islohotlar ham quyi bosqichlarda natija bersa, birniki mingga, mingniki tumanga tatiyveradi.

Endi bir idorada rahbar bo'lishning mohiyat-maqsvadi – masalalarni qog'ozda hal etish yoki faqat raqamlardan iborat hisobotlar to'ldirish emas, balki hayotning mavjud achchiq haqiqatlariga yuzma-yuz kelib, real voqelikning shiddatli to'liqinida yonib-kuyib ishlash ekanini barcha to'la tushunib olishi kerak.

Yana bir masala: xorijdagi va ichkaridagi ayrim «do'st»larimiz Virtual qabulxona tashkil etilgach, «bu tizim Prezident saylovidan so'ng o'z-o'zidan unutiladi», deb «bashaorat» qilgan, buni hatto saylovoldi «piar»i tarzida talqin etgan holatlar ham uchradi. Biroq amalda buning tamomila aksi bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bir ishni boshladimi, oxiriga yetkazish uchun barcha imkoniyatni ishga solishi, o'zini ham, o'zgalarni ham birday ter to'kib mehnat qilishga majbur qilishi, ishlamaganga qo'ymasligi, yakunda, bir kun kelib, barcha rahmat aytishi – bularning barini xalqimiz, jamoatchiligimiz yaxshi biladi.

Bilmaganlar bilishi kerak bo'lgan haqiqat oddiy: davlatimiz rahbari bu sohada nainki bugun yoki ertangi kun uchun mo'ljallangan, balki uzoq istiqbolda mamlakatimizda barcha tarmoqdagi muammolarni tez va samarali hal qilishning yangi va zamonaviy mexanizmini hayotimizda tatbiq etmoqda. Bu bir-ikki yillik maqsad emas, ijtimoiy adolatni hayotda ta'minlashning uzoq yillik strategiyasidir.

Puxta, aniq va amaliy mexanizm. Prezidentimizning 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati, Prezident devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida Prezidentning Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, har bir tuman va shaharda Prezidentning Xalq qabulxonalari, Prezidentning virtual qabulxonasi tashkil etildi. Mazkur tuzilmalar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda ishlaydi. Bunda Virtual qabulxonaning ishlash shakli va uslubi o'zgarmagan: murojaatlarni 0-800-210-00-00 yoki 10-00 qisqa raqamlariga qo'ng'iroq qilish, pm.gov.uz manzilidagi maxsus murojaat shaklini to'ldirish orqali yuborish

mumkin. Mamlakatimizning barcha tuman va shaharlarida Xalq qabulxonalari haftada besh kun 9.00 dan 18.00 gacha tanaffussiz faoliyat ko'rsatadi.

Ayni paytda Xalq qabulxonalari joylardagi eng zamonaviy binolarda ish boshladi. Bu yerda jismoniy va yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, kutish va fuqarolarni qabul qilish zallari, ish kabinetlari, Ona va bola, tibbiyot xonalari mavjud. Qabulxonalar huquqiy adabiyotlar, zarur ma'lumotlar va axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan.

Prezidentimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bevosita tanishar ekan, tashkiliy jihatlarga yuqori baho berdi. Endi uni mazmunan boyitish, ichki madaniyatni mustahkamlash zarurligini, hokimlar, prokurorlar, ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari va boshqa mutasaddi rahbarlar bu yerda xalq bilan muloqot qilishi, har bir murojaat o'z yechimini topishi, adolat ta'minlanayotganini odamlar sezishi, bir so'z bilan aytganda, bu maskanda adolat ovozi jaranglab turishi kerakligini ta'kidladi.

Nima uchun davlatimiz rahbari bu jihatlarga qayta-qayta e'tibor qaratmoqda? Chunki Xalq qabulxonasiga kirib kelayotgan fuqaro uchun hech qanday to'siq bo'lmasligi lozim, u fikrini, taklif va mulohazalari, muammolarini ochiq-oydin ayta olishi kerak. Sansolarlik, qo'rquv, hadik bo'lmasligi kerak. Rost-da, ilgari odamlar biror davlat idorasiga shikoyat ko'tarib borsa, avvalo, mutasaddilarga «gapi o'tadi»gan odam izlardir. Biror rahbar yoki mutasaddi unga «Shikoyatingni o'rganishdan boshqa ishim yo'qmi?» kabi iddaolarni aytsa-ku, o'zini xuddi aybdorday his qilardi.

Bu yerda fuqarolar va tadbirkorlar doimo ochiq chehra bilan kutib olinadi. Odamlar, chin ma'noda, ortida suyanch tog'i borligini his qilmoqda. Bu oldingi tasavvur va tushunchalardagi kabi tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik emas, balki barcha masalani qonun doirasida ko'rib chiqish, hal qilish degani. Shu o'rinda Xalq qabulxonalarida murojaatlar bilan ishlash tartibi haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tsak, foydadan xoli bo'lmaydi. Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxona xodimlari murojaatlarni qabul qiladi, ro'yxatga oladi, rasmiylashtiradi,

tahlil qiladi, Murojaatlarning yagona klassifikatoriga muvofiq ularni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini belgilaydi. Murojaatlarga oid ma’lumotlar «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi» axborot tizimiga kiritiladi.

Xalq qabulxonalarida murojaatlar og‘zaki, yozma va elektron shaklda shaxsan yoki pochta orqali qabul qilinadi. Arizachi shaxsan murojaat qilganda, navbat bo‘yicha tartib raqamini oladi. So‘ng kutish zalida Xalq qabulxonasi xodimi chaqirishini kutadi. Arizachi chaqirilgach, Xalq qabulxonasi xodimi uning arizasini tekshiradi. Tekshirish yakunlari bo‘yicha arizaga ro‘yxat raqami beriladi.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonda barcha darajadagi Xalq qabulxonalarini xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo‘yilgani ularga obyektiv, xolis ishlash, murojaatlarni o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqish, adolatli qarorlar qabul qilishda katta imkoniyat va vakolatlar beradi. Prezident devonining Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati murojaatlar bilan ishlash ustidan tizimli monitoring va nazorat olib boradi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari, mansabdor shaxslari, barcha darajadagi hokimlar sayyor qabullar, jumladan, Xalq qabulxonalarida tashkil etiladigan qabullarni muntazam o‘tkazib borish bilan birga, Xizmatga murojaatlar bilan ishlashga oid o‘z hisobotini taqdim etadi. O‘z navbatida Xizmat bu hisobotlarni o‘rganib, murojaatlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ishlar sifatini, murojaatlar ko‘rib chiqilayotganda aniqlangan tizimli muammolarni muntazam tahlil qilib boradi. Shuningdek, qoidabuzarliklar va muammolarni fosh etadi, murojaatlarga asos bo‘lgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish maqsadida huquqni qo‘llash amaliyoti va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi, Prezidentga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining murojaatlar bilan ishlashi holati to‘g‘risida muntazam axborotlar tayyorlab, kiritadi, murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalarni aks ettirish

maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadi.

Bularning hammasidan ko'zlangan asosiy maqsad – har bir murojaatning o'z vaqtida qonuniy, samarali ko'rib chiqilishini ta'minlash, aholini o'ylantirayotgan tizimli muammo va masalalarga yechim topishdir.

Murojaat qilishning ham o'z madaniyati bor. Hayot bor ekan, inson bor ekan, muammolar ham bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda murojaatlar bilan ishlash hech qachon kun tartibidan tushmaydi. Biroq xalqimiz yakdil-hamfikir bo'lsa, muammolarga tik qarab, ularni bir chetdan hal qilishga kirishsak, ishoning, adolat hayotimizda to'la qaror topadi, shikoyatlar asta-sekin kamayadi. Ya'ni, adolat bor joyda shikoyat bo'lmaydi.

Aholining huquqiy ongini, xususan, murojaat madaniyatini yuksaltirish ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Murojaatlar ichida ba'zan sog'lom aqlga, oddiy mantiqqa to'g'ri kelmaydiganlari ham uchraydi. Xalqimiz bejiz «o'ynab yozsang ham o'ylab yoz», demaydi. Bir tashkilotga xat bitayotgan odamda so'z mas'uliyati, fikr madaniyati, ma'lumotlar uchun javobgarlik hissi bo'lishi kerak.

Murojaat qiluvchilar o'z shikoyat-arizalari Prezident darajasida ko'rilayotganini chuqur anglab yetishlari lozim. Har bir murojaatni ko'rib chiqish, o'rganish, tahlil etishga vaqt kerak. Agar murojaatlarda ko'tarilayotgan masalalar muayyan hudud, odamlar, umuman, jamiyatimiz uchun foydali, adolatli va o'rinli bo'lsa, nur ustiga nur.

Davlatimiz rahbari hayotimizda adolat yanada mustahkam qaror topishi, har bir ishning xalqimiz bilan bamaslahat amalga oshirilishi, inson huquq va manfaatlarining amalda ta'minlanishiga xizmat qiladigan yangi, zamonaviy tizim ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etish bilan mustaqil Vatanimiz tarixida yangi davrga, taraqqiyotning yangi bosqichiga asos solmoqda. Prezidentimizning «**Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir**», degan hayotbaxsh so'zlari bugun Xalq qabulxonalariga kiraverishda katta harflar bilan yozib qo'yilgan. Xalq dardi-tashvishlari bilan yonayotgan beorom qalb tubidan otilib chiqqan bu haroratli

soʻzlar oʻzining, oilasining, butun el-yurtimiz, bugungi va kelajak avlodlar taqdiriga befarq boʻlmagan har bir yurtdoshimiz uchun hayotiy aʼmolga, ezgu vazifaga aylanishi shart. Hozirgi kunga qadar virtual qabulxonaga 2 million murojaat kelib tushdi¹. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti virtual qabulxonasi ishga tushirilganiga bir yil toʻldi. Ushbu munosabat bilan «Xalq soʻzi» gazetasida maqola eʼlon qilindi.

Xalq bilan muloqotning noyob tizimi fuqarolarning davlat organlari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri munosabat oʻrnatish imkonini berdi. Bir yil davomida sinovdan oʻtib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yoʻlidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining yuksak minbaridan turib, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali oʻzlarining dolzarb muammolarini hal qilganini taʼkidlab oʻtdi.

Xalq hokimiyatchiligi toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot, yaʼni «fuqaro — davlat» gʻoyasida mujassam boʻlgan eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu soʻnggi paytlarda mamlakatimizda barcha sohada kechayotgan islohotlarni oʻzaro uzviy bogʻlab turadigan asosiy negiz sifatida koʻzga tashlanmoqda. Bu borada yurtdoshlarimiz hamjihatlikda mamlakatimizning yaqin istiqboldagi «yoʻl xaritasi»ni ishlab chiqqani hamda u jamoatchilik muhokamasidan soʻng tasdiqlanganini eslashning oʻzi kifoya. Aytish joizki, yurtdoshlarimizni, ochigʻi, koʻp oʻylatgan, koʻnglini bir qadar bezovta qilgan, oʻziga xos nozik muammo ham yechimini topdi. Aniqroq aytadigan boʻlsak, koʻp sonli murojaatlar asosida oʻrganilib, maktablarda 10-sinf qayta tiklandi. Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbuslarida inson manfaatlari yurtimizda kechayotgan yangilanishlarning asosiy maqsadi sifatida aks etadi.

¹(<https://kun.uz/uz/news/2017/09/23/12-million-murozaat-virtual-kabulhona-bilan-bir-jil>) 17:05 / 23.09.2017

«Taraqqiyot strategiyasi» markazi tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, «xalq» va «mamlakat»— Prezidentimizning ma`ruzalari, nutqlarida eng ko'p uchraydigan so'zlar ekan. Yurtboshimizning 12 ta ma`ruzasida ushbu so'zlar uch yuz martalab yangragan. Bu o'zbekistonliklarning davlat rahbari hamda yangi institutga bo'lgan yuksak ishonchini ko'rsatmoqda. Binobarin, Virtual qabulxona allaqachon aholi muammolarini amalda hal qilishga qodir bo'lgan mexanizmga aylanib ulgurdi.

Fidoi va jonkuyarlar davri keldi. Xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'tirof etilganidek, Shavkat Mirziyoyev ko'plab amaldorlarni aylanib o'tib, fuqarolarning shikoyatlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladigan va Prezident devoniga yetkazadigan Virtual qabulxonani tashkil etish orqali shu paytga qadar xalqdan uzoqlashib ketgan o'zbek siyosiy modelini ijobiy ma'noda larzaga keltirdi. «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyilini hayotga tatbiq etishga, ishni soat mexanizmidek tashkil qilishga qodirlargina qoldi. Bu tamoyil odamlarning hokimiyat bilan to'siqsiz muloqot o'rnatishiga keng maydon hamda imkon beradi.

2016 yilning oxiriga kelib, ushbu ezgu ishlar ko'lami yanada ortdi. Prezident Farmoni bilan har bir tumanda, shaharda davlat rahbarining Xalq qabulxonalari tashkil etilishi belgilandi. Bu davlat va fuqaro o'rtasidagi muloqotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi, jamiyatda adolat ildizlarini yanada chuqurroq mustahkamlashga, turli bo'g'indagi rahbarlar, amaldorlarni aholi bilan yaqinlashtirishga, murojaatlarning imkon qadar tezroq hal qilinishiga zamin yaratdi.

Qabulxonaga iqtisodiyot hamda tadbirkorlik, ijtimoiy rivojlanish, yoshlar siyosati, fuqarolar yig'inlari va jamoat tashkilotlari, sud-huquq masalalari, kommunal xo'jaligi hamda qurilish sohalari bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlar tezkorlik bilan rasmiylashtirilib, taalluqliligi bo'yicha onlayn tarzda yuborilmoqda.

Jamiyatdagi o'zgarishlar barometri. O'tgan davr mobaynida Virtual hamda Xalq qabulxonalari mamlakatni yangilashning amaliy mexanizmiga aylandi.

Prezidentimiz tomonidan o'tkazilayotgan ko'plab selektor yig'ilishlari fuqarolarning kundalik hayotiga doir murojaatlarni ko'rib chiqishga qaratilgan ishlarning borishi muhokamasidan boshlanadi. Aholining haqli talablariga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lgan ayrim rahbarlar faoliyati tanqid qilinadi. Vaholonki, murojaatlarning katta qismini o'z vaqtida tezkorlik bilan hal etish mumkinligi kundek ravshan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, -shikoyatlarning 70 foizga yaqini bevosita mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakolatiga kiradigan masalalardir.

Yurtdoshlarimizning murojaatlari ayni paytda butun boshli sohalarda haqiqiy ahvolni ko'rsatadigan indikator, jamiyat kayfiyatini o'rganish barometri, tahlil, asosiy dasturilamal hujjatlar uchun noyob material hamdir. Masalan, sudlar va sudyalarning faoliyati bo'yicha qabulxonalariga kelib tushgan ko'p sonli murojaatlar natijasida tizimda tub o'zgarishlarga qo'l urildi. Bunday yangilanishlarni sog'liqni saqlash, ichki ishlar organlari, uy-joy kommunal xo'jalik faoliyatida ham kuzatish mumkin.

Virtual hamda Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan elektron, yozma va og'zaki murojaatlar, taklif hamda shikoyatlarga faqatgina javob qaytarilmasdan, ularda ko'tarilgan muammolarni hal etish tizimli tahlil jarayonida umumlashtirilmoqda. 2017 yilning boshida kelib tushgan 7 mingta murojaatda fuqarolarimiz pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar ularning roziligisiz plastik kartochkaga to'liq o'tkazib yuborilayotganiga e'tiroz bildirishgan. Ushbu muammoning tizimli yechimi sifatida davlatimiz rahbarining «Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Fevral oyidan barcha turdagi pensiyalar naqd pulda berila boshlandi, talabalar stipendiyalarining kamida 50 foizi naqd shaklga o'tkazildi.

Fuqarolarimiz ko'chmas mulk bo'yicha bitimlarni tuzishda ma'lumotnoma olish uchun qimmatli vaqtlarini yo'qotib idorama-idora yurishardi. Fuqarolardan kelib tushgan ko'p sonli murojaatlar tahlil etilib, hukumat qarori ishlab chiqildi hamda

qabul qilindi. Sir emas, fuqarolarning shikoyatlari orasida mavzu bo'yicha uy-joy masalasi yetakchilik qiladi. Shu mavzuda birgina Virtual qabulxonaning o'ziga 110 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan. Muammolar umumdavlat va mahalliy kesimlarda hal etib kelinmoqda. Shunga qaramay, masalani o'zi mustaqil yechishga qiynaladigan toifa ham mavjud. Albatta, so'z jismoniy imkoniyati cheklangan kishilar haqida bormoqda. Ulardan ayrimlarining davlatimiz insonparvarligidan umid qilishdan boshqa iloji yo'q.

Xatlar hamda telefon qo'ng'iroqlari va Prezident devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan viloyatlarda tashkil etilayotgan sayyor qabullari asosida nogironlarni uy-joy bilan ta'minlashning adolatli hamda shaffof tizimi yaratildi. Ayni chog'da yangilangan loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar ularga juda qulay shartlarda ajratilayapti. Qolgani esa imtiyozli ipoteka krediti-orqali 15 yil davomida qoplanadi. Bundan tashqari, nogiron ayollarga tikuv mashinalari sovg'a qilinmoqda. Paxta va g'allani qayta ishlovchi korxonalar, temir yo'l tizimi tashkilotlari ularga buyurtmalar berib, xom ashyoni ham o'zlari yetkazib berishayapti.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga muvofiq, mas'ul idoralar fuqarolikka qabul qilishga doir tegishli hujjatlarni ko'rib chiqishni tezlashtirishdi. Bu borada o'tgan yil dekabridan bugungi kungacha Prezident yettita Farmonni imzoladi. Besh, o'n, hatto yigirma yillab kutgan

1000dan ziyod kishi nihoyat fuqarolik pasportini qo'liga oldi. Bu esa 1991 yildan 2007 yilgacha fuqarolikka qabul qilinganlar sonidan ikki baravar ziyoddir. Shu yil avgust oyida qabul qilingan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qaror xalq bilan muloqotning mantiqiy davomi bo'ldi. Har bir hudud «mahalla— tuman(shahar)— viloyat— respublika» tamoyili asosida ishlovchi sektorlarga bo'lindi. Mazkur islohotning bosh maqsadi — kerakli chorani oldindan ko'rish. Davlat endi muammolar to'planib qolishini kutib o'tirmaydi, ularni odamlar

tegishli idoraga murojaat qilgunicha hal etib qo'yishga intiladi. Masalan, yuqorida aytilganidek, o'nta muammodan yettitasi mahalliy xarakterga ega. Ilgari bunday dasturlar kabinetda o'tirib tuzilardi. Lekin vaqti-vaqti bilan poytaxtdagi keng hamda ravon shohko'chaga derazadan qarab qo'yish, aytaylik, Kegeyli yoki Sho'rchi yo'llarini ta'mirlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga imkon bermasdi. Xo'sh, shunga o'xshash manzilli dasturlar qanday bo'lishi kerak? Bu savolga javob tariqasida davlatimiz rahbarining aprel oyida qabul qilgan qarorini keltirish mumkin. U Navoiy viloyatining olis cho'l zonasida yashovchi aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ko'plab murojaatlar asosida ishlab chiqildi. Lekin bir necha oydayoq vaziyat ijobiy tomonga o'zgara boshladi. Buni, eng avvalo, yigit-qizlar his etishdi. Joriy qilingan imtiyozlarga asosan, cho'l zonasidan kelgan abituriyentlar testda 68 balldan yuqori ball to'plagan holda, uchta viloyatdagi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinib, o'qishni bitirganidan so'ng o'z tumanining byudjyet tashkilotlarida kamida to'rt yil ishlab berish sharti bilan bepul ta'lim oladigan bo'lishdi. Ta'lim sifatini ko'tarish, ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida chetdan mutaxassislar taklif etildi. Ta'kidlash kerakki, xalq bilan ochiq muloqot ko'p narsani, avvalo, odamlar dunyoqarashini o'zgartirmoqda. Joylardagi Xalq qabulxonalari xodimlarining e'tirof etishicha, murojaatlarning xarakteri ham o'zgarayapti. Agar bir necha oy avval ular, asosan, shaxsiy masalada bo'lgan bo'lsa, endi ko'proq jamiyat manfaatini ko'zlab yo'llanayapti. Murojaatlarda «Kelinglar, mahallamizni obodonlashtiraylik, maktab ochaylik yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yaylik» kabi takliflar borligi har qanday kishini quvontiradi. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash borasidagi tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan ham qiziqish bilan kutib olingani bejiz emas. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning delegatsiyalari tashrifi dasturida Xalq qabulxonalarida bo'lish alohida manzilga aylandi. Shu yilning may oyida mamlakatimizga kelgan BMTning Inson huquqlari bo'yicha boshqarmasi Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn ham Xalq qabulxonasi faoliyati bilan qiziqib, obdan tanishgandi. Mazkur nufuzli tashkilot boshqarmasining rasmiy saytida uning quyidagi xulosalari keltirilgan:— Qadimiy Samarqand shahrida, Prezidentning Xalq qabulxonasida bo'lib, ro'y berayotgan

o'zgarishlarning yana bir tasdig'iga guvoh bo'ldim. Bunday qabulxona davlat rahbarining tashabbusi bilan xalqning dardini tinglash maqsadida butun mamlakat bo'ylab tashkil etilibdi. O'tgan yili bu ish boshlanganidan buyon 800 mingga yaqin murojaat kelib tushibdi. Shikoyatlar ko'plab yangi islohotlarni boshlashga, shuningdek, mavjud muammolarni mahalliy darajada amaliy hal qilishga turtki bergan. Buni men Samarqandda ko'rdim: kishilarga maslahat beruvchi ma'lumotxonalar ochilgan, ayrim hollarda, uy-joy, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va bank xizmatlari ko'rsatish, huquqiy yordam berish kabi masalalar tezkorlik bilan hal etilayapti. Mamlakatimizga tashrif buyurgan boshqa mehmonlar hamda ekspertlar ham ushbu institutning noyobligini e'tirof etishmoqda. Har qaysi davlat ham bunday majburiyatlarni o'z zimmasiga ololmasligini, boshqa biror mamlakatda Virtual va Xalq qabulxonalari, uning tarkibiga kiruvchi davlat organlari tizimi ta'sis qilinmaganligini aytishmoqda. Demak, bir yil davomida o'zining samaradorligini isbotlagan tajriba, Prezidentimizning boshqa tashabbuslari qatori, o'rganish hamda ommalashtirishga munosib. Bunyod etilgan bu yo'l esa xalqparvarlik, adolatparvarlik, barqarorlik, ta'bir joiz bo'lsa, yuksak ishonch, ezgu orzu va umidlar yo'lidir¹. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi qisqa davrdagi faoliyati davomida aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini beruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, barcha darajadagi hokimiyatlar bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmiga aylandi². Tahlillar shuni ko'rsatdiki, murojaatlarning aksariyat qismi tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan to'siq

¹Xalq so'zi. O'tkir Rahmat, / «Xalq so'zi». 22 fevral 2018. № 1435

²<http://uza.uz/uz/documents/jismoniy-va-yuridik-shaxslarning-murojaatlari-bilan-ishlash28-12-201628.12.2016>

va g'ovlarni bartaraf etish, qonunchilikka zid bo'lgan idoraviy qarorlarni bekor qilish, ishga joylashish, sog'liqni saqlash, bank kreditlaridan erkin foydalanish, uy-joy-kommunal va yo'l-transport xizmatlari sifatini yaxshilash masalalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining faoliyati yuzasidan kelib tushmoqda. 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan hamda aholining O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi ishi to'g'risidagi ko'plab ijobiy fikrlarini e'tiborga olib, barcha darajadagi davlat organlari faoliyatida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyilni amalda qaror toptirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida: Quyidagilar tuzilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida tuzilgan. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari** (bundan buyon–Xalq qabulxonalari)–Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda(tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari); **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi** (bundan buyon – Virtual qabulxona).

Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (bundan buyon–murojaatlar) bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash; fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga,

mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga (bundan buyon – davlat organlari) va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish; Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qat’iy amal qilgan holda, to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish; Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish; jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o‘tkazish; Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibiy tuzilmasida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati(bundan buyon–Xizmat) tuzilsin. Xizmat zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklansin: murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan huquqni qo‘llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxona faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek ularning faoliyatini me‘yoriy-uslubiy va axborot-tahliliy jihatdan ta‘minlash; davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini, shu jumladan joylarga sayyor chiqishlarni tashkil etish hamda kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha tezkorlik bilan tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish orqali nazorat qilish va muvofiqlashtirish; Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga

kelib tushgan, shuningdek tegishliligiga ko‘ra davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlarni qabul qilish, qayta ishlash, ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish; mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, aybdor shaxslar javobgarligining muqarrarligini ta‘minlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish; murojaatlarga asos bo‘lgan tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash yuzasidan doimiy tahlillar o‘tkazish; murojaatlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish, fuqarolar bilan ochiq muloqotni kengaytirish, aholining davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; Xalq qabulxonalari kadrlar tarkibini aholi bilan bevosita ishlash uchun zarur bilimga, tashkilotchilik va tahlil qilish qobiliyatiga, shuningdek ma‘naviy-axloqiy va psixologik fazilatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan shakllantirish, to‘ldirish va mustahkamlab borish; davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyati haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam axborot berib borish; murojaatlar bilan ishlash natijalari ommaviy axborot vositalarida tizimli yoritib borilishini tashkil etish¹.

2.2 Tezkor davlat xizmatlari agentligining tashkil etilishi.

Mamlakatda davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini beradi. 2003-yildan buyon tadbirkorlik subyektlarini “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tumanlar(shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari (keyingi o‘rinlarda Inspeksiyalar deb yuritiladi) tomonidan amalga oshirib kelingan. 2016-yil 1-yanvardan boshlab Inspeksiyalar negizida Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari (keyingi o‘rinlarda Yagona markazlar deb yuritiladi) tashkil etildi. 2017-yil 1-fevraldan

¹(<http://uza.uz/uz/documents/aholiga-davlat-xizmatlari-ko-rsatishning-milliy-tizimini-tub-12-12-2017>)

Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o‘tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo‘yicha keyingi qadam bo‘lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada Yagona markazlar tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari soni 33 tagacha oshdi. 2017-yil 1-apreldan boshlab ro‘yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirilganligi “Doing Business 2018” global reytingidagi “Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekistonning mavqeini 24-o‘rindan 11-o‘ringa yaxshilashga xizmat qildi. Shu bilan birga, davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishiga ayrim tizimli muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Xususan:

birinchidan, “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish imkoniyatidan faqat tadbirkorlik subyektlari foydalanishi mumkin. Bunda fuqarolar hanuzgacha turli davlat organlarida hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha murakkab tartib-taomillardan o‘zlari o‘tishga majbur bo‘lmoqda;

ikkinchidan, qator davlat organlarida axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining mavjud emasligi, ular idoralararo integratsiya qilinishining past darajada ekanligi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha davlat xizmatlari majmuasidan qulay va o‘z vaqtida foydalanishni ta’minlamayapti;

uchinchidan, ko‘pchilik davlat xizmatlarini ko‘rsatishning tartib-taomillari murakkab va foydalanish uchun qiyin bo‘lib qolmoqda, narxni shakllantirish mexanizmlari shaffof emas, alohida hollarda tor idoraviy manfaatlarda “monopol” xizmatlar ko‘rsatishga talablar belgilanmoqda;

to‘rtinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishining past darajada ekanligi, qog‘oz hujjatlar aylanmasining saqlanib qolgan andozalari asossiz moliyaviy xarajatlarga, fuqarolar ko‘p vaqt kutib qolishi va navbatlar yuzaga kelishiga hamda oqibatda, ayrim hollarda korrupsiya va byurokratiya holatlariga olib kelmoqda;

beshinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatishni, shu

jumladan real vaqt rejimida masofadan monitoring qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish orqali nazorat qilish va sifatini baholashning ta'sirchan tizimi mavjud emas.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholining davlat xizmatlaridan keng foydalanishini ta'minlash, ularni ko'rsatish bilan bog'liq vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, aholining davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirish imkonini bermaydi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishini ta'minlash maqsadida: 1. Quyidagilar davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini tubdan isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblansin: **birinchidan**, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ulug'vor g'oyani so'zsiz amalga oshirish; **ikkinchidan**, Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi **Davlat xizmatlari arkazlariga** o'zgartirish; **uchinchidan**, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha "**Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi**" tamoyiliga ko'ra davlat xizmatlari ko'rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash; **to'rtinchidan**, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasiga innovatsion yechimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyotini kengaytirish; **beshinchidan**, davlat xizmatlarini, shu

jumladan olis joylarga chiqish orqali (“mobil davlat xizmatlari”) ko‘rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan grafigidan foydalanish; **oltinchidan**, davlat xizmatlari ko‘rsatish sifati va tezkorligini monitoring qilish va baholashning ilg‘or mexanizmlarini joriy etish, aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini, shu jumladan tezkor aloqalarni, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarda on-layn so‘rovlarni tashkil qilish; **yettinchidan**, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida malakali kadrlarni tizimli tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakasini, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ixtisoslashgan muassasalarida stajirovka o‘tash orqali tizimli ravishda oshirishni tashkil etish.

Quyidagilar negizida **O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi** (keyingi o‘rinlarda Agentlik deb yuritiladi) tashkil etilsin:

38 ta shtat birligi soniga ega O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari ko‘rsatishni muvofiqlashtirish va rivojlantirish boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari; Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari. Quyidagi mablag‘lar hisobiga moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlagan holda: O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmatining 24 ta shtat birligi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalarining 157 ta mutaxassis lavozimi shtat birligi Agentlikka o‘tkazilsin. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin: jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ortiqcha ma‘muriy tartib-taomillarni bartaraf etish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish hisobiga davlat

xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish;
Davlat xizmatlari yagona reyestrini shakllantirish, mazkur sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish; davlat xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladigan axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish, tayyorlash, joriy etish va integratsiya qilishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda ishtirok etish; davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash; davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va uslublarini joriy etishni tashkil qilish, mazkur sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2018-yil 1-yanvardan Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari huzurida faoliyat yurituvchi **Davlat xizmatlari markazlariga** aylantirilsin, quyidagilar ularning asosiy vazifalari sifatida belgilansin:

jismoniy va yuridik shaxslarga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha, shu jumladan olis joylarga chiqqan holda davlat xizmatlari ko'rsatish; davlat xizmatlari servisining yuqori sifati, tezkorligi, shaffofligi, qulayligi va foydalanish imkoniyatini ta'minlash, mazkur sohada byurokratiya, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarga yo'l qo'yimaslik; idoralararo hamkorlikni, eng avvalo, davlat xizmatlari ko'rsatish uchun zarur hujjat va axborotlarni tezkorlik bilan olishni ta'minlovchi elektron hamkorlikni amalga oshirish; davlat xizmatlari ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali axborot va maslahat yordamlarini taqdim etish; vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatishda qonun hujjatlari va ma'muriy reglamentlar talablariga rioya etilishini ta'minlash.

Belgilab qo'yilsinki: Agentlik faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy

va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan; Agentlikning hududiy boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari tomonidan; Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Agentlik va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish sxemasi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga Agentlik faoliyati ustidan umumiy rahbarlik va nazoratni amalga oshirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va Agentlik xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–2750-son qarori bilan tashkil etilgan Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tugatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tuzilmasida umumiy shtat soni doirasida 4 ta shtat birligi bilan Davlat xizmatlari ko‘rsatishni muvofiqlashtirish shu’basi tashkil etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda ilg‘or xalqaro amaliyotni o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari binolarining ularda Davlat xizmatlari markazlarini joylashtirishni ham nazarda tutgan holda namunaviy loyihalarini ishlab chiqsin va ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari zamonaviy binolarini tasdiqlangan loyihalarga muvofiq, eng avvalo, davlat-xususiy sheriklik shartlarida qurish choralari ko‘rsin; yangi binolar foydalanishga topshirilgunga qadar Davlat xizmatlari markazlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari binolarida, zarur hollarda esa – jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatish uchun zarur sharoitlarni yaratgan holda boshqa binolarda joylashtirishni ta‘minlasin. Quyidagilar: Jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar (keyingi o‘rinlarda Kompleks chora-tadbirlar deb yuritiladi) 2-ilovaga muvofiq 2018-2020-yillarda bosqichma-bosqich joriy etiladigan, “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha faqat Davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda Ro‘yxat deb yuritiladi) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi T.A.Xudaybergenov va O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar va Ro‘yxatning amalga oshirilib borilishini har oyda ko‘rib chiqsin. Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 28-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2412-son va 2017-yil 1 fevraldagi “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–2750-son qarorlariga muvofiq Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshirilishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin. Ro‘yxatda ko‘rsatilgan mas‘ul davlat organlari va boshqa tashkilotlar belgilangan muddatlarda:

Davlat xizmatlari markazlari orqali davlat xizmatlari ko‘rsatish uchun zarur hujjat va boshqa aktlarning namunaviy shakllari, blankalarini ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatlarining tegishli turlarini ko'rsatish bo'yicha, shu jumladan boshqa davlat organlari va o'zga tashkilotlardan idoralararo elektron hamkorlik orqali olinadigan hujjatlar va ma'lumotlarni fuqarolardan talab etish bekor qilinishini nazarda tutgan holda ma'muriy reglamentlar loyihalarini ishlab chiqsin. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2018-yil 1-fevralga qadar muddatda Davlat xizmatlari yagona reyestrini shakllantirishni ta'minlasin. Belgilansinki, 2018-yil 1-fevraldan boshlab davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar ularning Davlat xizmatlari yagona reyestrda ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlaydi, 2018-yil 1-iyundan boshlab esa mazkur reyestrda kiritilmagan davlat xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi Adliya vazirligiga xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun texnik ko'maklashish mablag'lari va grantlarni jalb qilish masalalarini ishlab chiqishda, shuningdek, mazkur Farmonda nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda ko'maklashsin. Agentlik, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator, "O'zinjining" Respublika loyiha instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2018-yil 1-martga qadar muddatda Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari uchun zarur axborot tizimlari, resurslari, ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, joriy etish va integratsiya qilish va apparat-dasturiy komplekslarni o'rnatishning konsepsiyasi, texnik-iqtisodiy hisob-kitobi va texnik topshirig'i tayyorlanishini hamda tasdiqlash uchun o'rnatilgan tartibda kiritilishini ta'minlasin. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator 2019-yil 1-yanvarga qadar muddatda: tasdiqlangan konsepsiya, texnik-iqtisodiy

hisob-kitob va texnik topshiriq asosida Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari uchun axborot tizimlari, resurslari, ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilishini, shuningdek, apparat-dasturiy komplekslar o'rnatilishini ta'minlasin; Ro'yxatda ko'rsatilgan davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ularning axborot va telekommunikatsiya tizimlari, ma'lumotlar bazalari, serverlari va boshqa uskunalarini inventarizatsiyadan o'tkazib, keyinchalik ularni Agentlikning axborot tizimlari bilan integratsiya qilsin va idoralararo elektron hamkorlikni joriy etsin; Agentlik bilan birgalikda uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlarini zarur video, audio va boshqa uskunalalar bilan jihozlashni ta'minlasin hamda real vaqt rejimida davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini masofadan kuzatishni tashkil qilsin. 14. Vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari davlat xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi uchun shaxsan javobgar ekanligi haqida qat'iy ogohlantirilsin. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi ustidan qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxslarga nisbatan ta'sirchan choralarni ko'rgan holda tizimli nazorat o'rnatilsin. 15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin. Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini izchillik bilan takomillashtirish aholi hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda davlat organlarining mazkur sohadagi faoliyati sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishda maqbul shart-sharoitlar va qulayliklar yaratishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yil 1-fevraldan Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlarining tumanlar

(shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o‘tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo‘yicha muhim qadam bo‘lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada ushbu markazlar tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari soni 33 tagacha oshdi. 017-yil 1-apreldan boshlab ro‘yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirilganligi “Doing Business 2018” global reytingidagi “Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekistonning mavqeini 24-o‘rindan 11-o‘ringa yaxshilashga xizmat qildi. Shu bilan birga, xalq bilan ochiq muloqot natijalari hamda huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishida ayrim tizimli muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Avvalambor, “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimidan faqat tadbirkorlik subyektlari foydalanishi mumkin. Bunda fuqarolar hanuzgacha turli davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha murakkab tartib-taomillardan o‘zlari o‘tishga majbur bo‘lmoqdalar.

Qator davlat organlarida axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalari mavjud emasligi, shuningdek, ular idoralararo integratsiya qilinishining past darajada ekanligi vaziyatni murakkablashtirib, barcha davlat xizmatlari majmuasidan qulay va o‘z vaqtida foydalanishni ta’minlash imkonini bermayapti. Bundan tashqari, ko‘pchilik davlat xizmatlarini ko‘rsatishning tartib-taomillari fuqarolar uchun murakkab va foydalanish uchun qiyin bo‘lib qolmoqda, ularning narxini shakllantirish mexanizmlari esa shaffof emas. Natijada alohida hollarda tor idoraviy manfaatlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Ayrim hollarda fuqarolar davlat organlariga murojaat qilishda asoslantirilmagan moliyaviy xarajatlarga duch kelmoqdalar, eng avvalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishining past darajadaliigi, qog‘oz hujjatlar aylanmasining saqlanib qolingani andozalari navbatlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Davlat xizmatlari ko'rsatishni, shu jumladan real vaqt rejimida masofadan monitoring qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish orqali nazorat qilish va sifatini baholashning ta'sirchan tizimi mavjud emasligi ushbu xizmatlar sohasida qonuniylilikni ta'minlashning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'rsatib o'tilgan muammolar aholining davlat xizmatlaridan keng foydalanishini ta'minlash, ularni ko'rsatish bilan bog'liq vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, aholining davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirish imkonini bermaydi.

Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan **“Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon** davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkonini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug'vor g'oyani so'zsiz amalga oshiruvchi asosiy g'oyalarni belgilab berdi. Bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'uliyat yuklangan alohida davlat organi– **Davlat xizmatlari agentligi** hududiy bo'linmalari bilan tashkil etildi. Bu amalga oshirilayotgan islohotlarning uyg'unligi va izchilligini ta'minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Endilikda “yagona darcha” tamoyili nafaqat tadbirkorlik subyektlariga, balki bevosita fuqarolarga ham xizmat ko'rsatishda amal qiladi. Davlat xizmatchilari bilan bevosita muloqot qilmasdan hamkorlikni ta'minlash aholi uchun davlat xizmatlarini korrupsiya xavfisiz tezkorlik bilan ko'rsatish imkonini beradi, fuqarolarning kundalik hayotini jiddiy ravishda yengillashtiradi, byurokratiya va sansalorlik holatlarini bartaraf etadi.

Davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqotini tashkil etish, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynagan mazkur institutlar faoliyatining ijobiy yakunini hisobga olgan holda davlat xizmatlari ko'rsatish sohasi ularning bevosita muvofiqlashtiruvda bo'lishi nazarda tutilmoqda. O'z navbatida Xalq qabulxonalari va Davlat

xizmatlari markazlari tuman (shahar) miqyosida yagona yaxlit faoliyat olib borib, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarali tizimini shakllantirish imkonini beradi. Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini samarali tashkil etishdan tashqari, axborot almashinuvi bo'yicha idoralararo, eng avvalo, elektron hamkorlikning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish mazkur sohada muvaffaqiyatga erishish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Farmonda **Davlat xizmatlari yagona reyestrini** tashkil etish, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha yagona ma'muriy reglamentlar ishlab chiqish, Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va davlat xizmatlari markazlarida axborot tizimlari, resurslari, ma'lumotlar bazalari hamda dasturiy mahsulotlarni, shuningdek, apparat-dasturiy majmualarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Bu davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida **"Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi"** degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Internet va mobil texnologiyalarning faol joriy etilishi xizmatdan foydalanuvchilar davlat organlariga zarur hollarda borishlari, odatiy hollarda esa xizmatlar masofadan elektron tartibda ko'rsatilishi bilan bog'liq g'oyalarning istiqbolda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Farmon bilan Davlat xizmatlari markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlarining sonini, ayniqsa, fuqarolar uchun bosqichma-bosqich jiddiy ravishda oshirishni hisobga olgan holda xizmatdan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatiladigan bino va inshootlarni to'liq yangilashga zarurat mavjud. Shu munosabat bilan mas'ul idoralarga Davlat xizmatlari markazlarining yangi qiyofasini ishlab chiqish topshirilgan, mahalliy hokimiyat organlari esa Farmon talablarini hisobga olgan holda binolarni bosqichma-bosqich yangilashni ta'minlaydi. Jumladan sog'liqni saqlash, litsenziyalash, soliq, bojxona va boshqa sohalarda jadal sifat jihatidan yaxshilashning muhim mexanizmlari, davlat xizmatlari bo'yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish, xizmatlarni olis joylarga chiqqan holda ko'rsatish, aholi bilan tezkor aloqalar, rasmiy veb-saytlardagi internet-botlar, ijtimoiy tarmoqlar yordamida qayta aloqaning samarali tizimini tashkil etishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

2018-2020-yillarda joriy etilishiga qarab Davlat xizmatlari markazlarida “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha ko‘rsatiladigan **58** ta davlat xizmatining ro‘yxati tasdiqlandi.

Ularning qatorida uy-joylarning suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta‘minoti va boshqa muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, yakka tartibda uy-joy qurishni amalga oshirishga ruxsatnoma, turar joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish (propiska), ro‘yxatdan chiqarish va hisobga qo‘yish, turli arxiv ma‘lumotnomalari, patentlar, guvohnomalar va rasmiy hujjatlar dublikatlarini olish kabi aholining talabi yuqori bo‘lgan xizmatlar mavjud.

Aholi bilan o‘zaro bog‘laydigan yagona joy sifatida Davlat xizmatlari markazlari va Xalq qabulxonalari davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, fuqarolarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, ularning davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi¹. Shavkat Mirziyoyev xalq qabulxonalari asosida Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etishni taklif qildi. O‘zbekiston Prezidentining xalq qabulxonalari asosida Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etiladi. Yangi agentlik tuzilmasi Prezident devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmatiga aloqador bo‘ladi. U barcha davlat idoralari va Adliya vazirligi huzuridagi «Yagona darcha» markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni o‘zida birlashtiradi.

«Ma‘lumki, hammamiz deyarli har kuni turli idoralarga murojaat qilamiz. Deylik, notarius, arxiv yoki kadastr idorasidan, gaz, elektr, suv ta‘minoti tashkilotidan yoki mahalladan oddiy bir ma‘lumotnoma olish uchun ba‘zan kun bo‘yi navbatda turishga to‘g‘ri keladi», - dedi davlat rahbari.«Ana shunday, bir qarashda arzimas

¹O‘zbekistonda Tezkor davlat xizmatlari agentligi tashkil etiladi <https://www.gazeta.uz/oz/2017/12/08/agentlik8> dekabr 2017, 07:57

bo'lib tuyuladigan ishlar uchun odamlarning qancha vaqti, asabi ketadi. Shularning hammasini bir joyda, markazlashtirgan holda, tezlik bilan hal qilsa bo'ladi-ku!» - ta'kidladi u.«Aslida XXI asrda—Internet va axborot kommunikatsiyalari davrida bu ishlarning barchasini uydan chiqmasdan turib, kompyuter yoki uyali telefon orqali bajarish imkoni bor-ku!» - dedi Prezident.«Rivojlangan davlatlarda bunday tizim allaqachon yo'lga qo'yilgan. Shu tizimni yurtimizda ham joriy etishga, nima, imkoniyatimiz yo'qmi? «Ana shunday tizimni yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, xalqimizga katta yengillik yaratiladi, odamlar bizdan rozi bo'ladi», - dedi Shavkat Mirziyoyev. U hukumatga 15 kun muddatda ushbu masala bo'yicha Prezident qarori loyihasini kiritish vazifasini topshirdi.«Barchamiz yaxshi tushunamiz, xalqimizning hayot darajasi o'sishi, ko'pgina muammolar hal qilinishi bilan Xalq qabulxonalariga murojaatlar kamayib boradi. Shuning uchun bu qabulxonalar imkoniyatlarini biz davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga yo'naltiramiz»¹. «Barchamiz yaxshi tushunamiz, xalqimizning hayot darajasi o'sishi, ko'pgina muammolar hal qilinishi bilan Xalq qabulxonalariga murojaatlar kamayib boradi. Shuning uchun bu qabulxonalar imkoniyatlarini biz davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga yo'naltiramiz».

O'zbekistonda davlat xizmatlari ko'rsatishning mutlaqo yangi tashkiliy asoslari joriy etilmoqda, davlat va aholi o'zaro hamkorligining zamonaviy kontseptsiyasiga poydevor qo'yilmoqda

O'zbekiston prezidenti ilgariroq "Xalq qabulxonalarini" negizida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etilishi haqida ma'lum qilgan edi. Joriy yil 13 dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonni imzoladi².

Xalq qabulxonalarini negizida Tezkor davlat xizmatlari agentliklari tashkil etiladi

¹ Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi: xalqqa xizmat ko'rsatishning yangi shakli www.press-service.uz Shavkat Mirziyoyev.

²www.oz.sputniknews-uz.com/politics/20171213/706040210:01 13.12.2017

Farmonda Davlat xizmatlari yagona reyestrini tashkil etish, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha yagona ma'muriy reglamentlar ishlab chiqish, Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va davlat xizmatlari markazlarida axborot tizimlari, resurslari, ma'lumotlar bazalari hamda dasturiy mahsulotlarni, shuningdek, apparat-dasturiy majmualarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Bu davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Internet va mobil texnologiyalarning faol joriy etilishi xizmatdan foydalanuvchilar davlat organlariga zarur hollarda borishlari, odatiy hollarda esa xizmatlar masofadan elektron tartibda ko'rsatilishi bilan bog'liq g'oyalarning istiqbolda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Farmon bilan Davlat xizmatlari markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat xizmatlarining sonini, ayniqsa, fuqarolar uchun bosqichma-bosqich jiddiy ravishda oshirishni hisobga olgan holda xizmatdan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatiladigan bino va inshootlarni to'liq yangilashga zarurat mavjud. Shu munosabat bilan mas'ul idoralarga Davlat xizmatlari markazlarining yangi qiyofasini ishlab chiqish topshirilgan, mahalliy hokimiyat organlari esa Farmon talablarini hisobga olgan holda binolarni bosqichma-bosqich yangilashni ta'minlaydi. Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan sog'liqni saqlash, litsenziyalash, soliq, bojxona va boshqa sohalarda jadal sifat jihatidan yaxshilashning muhim mexanizmlari, shuningdek, davlat xizmatlari bo'yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish, xizmatlarni olis joylarga chiqqan holda ko'rsatish, aholi bilan tezkor aloqalar, rasmiy veb-saytlardagi internet-botlar, ijtimoiy tarmoqlar yordamida qayta aloqaning samarali tizimini tashkil etishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. **2017 yilda 2018-2020 yillarda joriy etilishiga qarab Davlat xizmatlari markazlarida "yagona darcha" tamoyili bo'yicha ko'rsatiladigan 58 ta davlat xizmatining ro'yxati tasdiqlandi.** Ularning qatorida uy-joylarning suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, yakka

tartibda uy-joy qurishni amalga oshirishga ruxsatnoma, turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish (propiska), ro'yxatdan chiqarish va hisobga qo'yish, turli arxiv ma'lumotnomalari, patentlar, guvohnomalar va rasmiy hujjatlar dublikatlarini olish kabi aholining talabi yuqori bo'lgan xizmatlar mavjud. **Farmon bilan davlat xizmatlari ko'rsatishning mutlaqo yangi tashkiliy asoslari joriy etilmoqda, davlat va aholi o'zaro hamkorligining zamonaviy kontseptsiyasiga poydevor qo'yilmoqda.** Aholi bilan o'zaro bog'laydigan yagona joy sifatida Davlat xizmatlari markazlari va Xalq qabulxonalarini davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, fuqarolarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, ularning davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Mening fikrim sayti xalq bilan muloqot vositasi sifatida.

Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya'ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko'rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog'ida "Mening fikrim" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi¹. O'zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo'ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikr va tashabbuslarini e'lon qilishlari mumkin.

¹<https://kun.uz/news/2018/04/20/mening-fikrim-veb-portali-isga-tusdi-uzbekiston-konunlari-bujica-taklif-beris-imkoniati-aratildi>

“Mening fikrim” veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo‘lishini ta’minlash maqsadida yaratildi”, — deyilgan portalda.

Portal quyidagi tartibda ishlaydi:

1. Fuqarolar o‘z tashabbuslarini portalga yozishadi
2. Ekspertlar ko‘rib chiqqanidan so‘ng ushbu tashabbus portalda e‘lon qilinadi
3. Portalda ushbu tashabbuslarga jamoatchilik tomonidan ovoz beriladi
4. Ovozlar yetarli darjaga yetgach tashabbus Oliy Majlis yoki Xalq deputatlari Kengashlari e‘tiboriga taqdim etiladi

Jamoaviy tashabbuslar portali quyidagi sohalar bo‘yicha fikr bildirish mumkin¹. 2018 yil 20 aprel kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Mening fikrim” veb-portalinig **meningfikrim.uz** taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Mazkur portal orqali Oliy Majlis palatalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga elektron jamoaviy murojaat berish imkoniyati taqdim etiladi. Shu bilan birga, har bir fuqaro o‘zining konstitutsiyaviy huquqidan foydalangan holda, mamlakat qonunchilik tizimini rivojlantirish borasida o‘z fikrlarini bildirishi mumkin bo‘ladi. Xo‘sh, ushbu portal qay tartibda ishlaydi? Dastavval murojaatchi Yagona identifikatsiya tizimida (id.gov.uz) o‘z shaxsini tasdiqlaganidan so‘ng, “Mening fikrim” veb-portalinig bosh sahifasidagi maxsus tugmani bosib tegishli joyga murojaat matnini kiritishi lozim. Mazkur murojaatni Yagona identifikatsiya tizimi (id.gov.uz) orqali o‘z shaxsini tasdiqlagan foydalanuvchilardan kamida 5 nafari qo‘llab-quvvatlashi talab etiladi. Buning uchun murojaat foydalanuvchilar e‘tiboriga havola etiladi. Murojaat yetarli miqdorda ovoz to‘plasa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi

¹O‘zbekistonda Mening fikrim-jamoaviy murojaatlar portali paydo bo‘ldi. <https://oz.sputniknews-uz.com/society/20180422/8014153/Ozbekistonda-Meninig-fikrim-jamoaviy-murojaatkar-portali-paydo-boldi.html>
10:34 22.04.2018

Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan ekspertizaga qabul qilinadi. Institut murojaatni o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun ekspertiza o'tkazadi. Shu o'rinda murojaatni yo'llashda e'tibor berish lozim bo'lgan jihat shundaki, ayrim murojaatlar ko'rib chiqilmaydi. Bular:

- mavjud konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga qaratilgan da'vatlar;
- jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga putur yetkazadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini poymol qiladigan;
- urush, zo'ravonlik, shafqatsizlikni targ'ib qilish, millatlararo, irqiy, diniy adovat, ekstremizm, separatizm va fundamentalizmni qo'zg'atish to'g'risidagi;
- terrorchilik harakatlarini sodir etishga, qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir etishga da'vat qilish to'g'risidagi va nizomda belgilangan boshqa masalalar.

Shu yilning aprel va may oylarida «Mening fikrim» veb-portalida O'zbekistonda avtomobillar oynasini qoraytirishga ruxsat berish va daraxtlarni muhofaza qilish tizimini isloh qilish haqidagi elektron jamoaviy murojaatlar e'lon qilingan edi. Ushbu murojaatlar qisqa muddat ichida 10 000 dan ziyod ovoz to'pladi. Mazkur murojaatlar «Mening fikrim» veb-portali moderatori - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bergan xabariga ko'ra, ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilgan. Ayni paytda vakolatli davlat organlari tomonidan zarur takliflar shakllantirilmoqda. Murojaatlar bo'yicha qarorlar tegishlilik bo'yicha 60 kun muddat ichida e'lon qilinadi. Vakolatli organ qabul qilgan qaror «Mening fikrim» portalida e'lon qilinadi. Joriy yilning 20-aprelida ishga tushirilgan portalda bugungacha jami 45 ta jamoaviy murojaat e'lon qilingan. Ularning 35 tasi Oliy Majlis palatalari, 6 tasi xalq deputatlari viloyat Kengashlari, 4 tasi xalq deputatlari tuman Kengashlariga yo'naltirilgan. Eng ko'p murojaatlar qonunchilik va sud-huquq masalalari, ekologiya, fan, ta'lim va uy-joy xo'jaligi sohalarida berilgan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan portalning «Telegram» messenjeridagi botini va mobil ilovasini yaratish rejalashtirilgan. Eslatib o'tamiz, yurtdoshlarimiz «Facebook» ijtimoiy tarmog'idagi

sahifasi orqali ham portalda ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Aytish kerakki, avvalroq Prezident Shavkat Mirziyoyevga «O'zbekiston qahramoni» unvonini berish haqidagi tashabbus ham 10 mingdan ortiq ovoz to'plagan edi. Hozircha shu murojaatning taqdirini haqida birorma'lumot yo'q¹. Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti hamda Germaniyaning Konrad Adenauer jamg'armasi vakolatxonasi hamkorligida "Mening fikrim" veb-portali – parlament va jamiyat o'rtasidagi muloqot vositasi" mavzusidagi davrasuhabati o'tkazildi. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi ijrosi doirasida tashkil etilgan tadbirda deputatlar, senatorlar, vazirlik va idoralar vakillari, Germaniyaning soha bo'yicha yetakchi ekspert va mutaxassislari, jurnalistlar ishtirok etdi². Qonunchilik muammolari instituti direktori R. Hakimov O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq "Mening fikrim" veb-portali faoliyatining ishga tushirilishi, avvalo, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishini ta'kidladi. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlashga zamin yaratadi. Germaniyada joriy etilgan jamoaviy murojaatlarni yo'llash va ko'rib chiqish tizimi hozirgi kunda jahonning ko'plab davlatlari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Bu tizim o'zining qulayligi, parlament va fuqaro o'rtasida samarali elektron muloqotni ta'minlay olishi bilan ajralib turadi. Germaniyaning jamoaviy murojaatlarni elektron tarzda yo'llash tizimini bevosita o'rganish va uning yutuqlarini O'zbekiston qonunchilik amaliyotiga tatbiq etish qonunlarimizning xalqchilik va adolat prinsiplari asosida shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadbirda germaniyalik mutaxassislar jamoaviy murojaatlarni elektron tarzda yo'llashning

¹Prezident Shavkat Mirziyoyevga «O'zbekiston qahramoni» unvonini berish haqidagi tashabbus 10 mingdan ortiq ovoz to'pladi <http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/ikki-jamoaviy-murojaat-oliy-majlisda-korib-chiqilmoqda>

²<http://uza.uz/uz/programs/25-years/parlament-va-jamiyat-o-rtasidagi-muloqot-vositasi-13-04-2018>

qulay va oson tizimi joriy etilishi O‘zbekiston qonunchiligi xalqchilik prinsipi asosiga qurilayotganidan dalolat ekanini qayd etdi. O‘zbekistonda jamoaviy murojaatlarni elektron tarzda yo‘llash tizimi, xususan, berilgan takliflarga ovoz yig‘ish va berilgan ovozlarni ekspertizadan o‘tkazish jarayoni Germaniya va Yevropaning rivojlangan davlatlarida belgilangan qoidalar bilan o‘xshash. Bu borada Germaniya tajribasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida tadbir ishtirokchilariga batafsil ma’lumot berildi. Davra suhbatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, viloyat va tuman xalq deputatlari Kengashlariga fuqarolarning elektron jamoaviy murojaat qilish huquqini ta’minlovchi “Mening fikrim” veb-portalini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi. “Mening fikrim” veb-portalini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi. Zamonaviy axborot texnologiyalari — samarali muloqot vositasi 1news.uz — Bugun axborot texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois yurtimizda iqtisodiy -barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini shakllantirishga e'tibor qaratilayapti. Xususan, o'tgan davrda “Axborotlashtirish to'g'risida”gi “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi, “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi, “Elektron hukumat to'g'risida”gi bir qator qonunlar qabul qilingani buning tasdig'idir. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llash davlatimizning yaqin hamda uzoq muddatga mo'ljallangan muhim strategik vazifalari qatorida turganini alohida qayd etish joiz. Bunga Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi misolida yana bir bor amin bo'lish mumkin. Unda ta'kidlanganidek, 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod oshirishda ilg'or texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya

tizimlarini barcha sohaga yanada faol jalb etish muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, jahon amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti mamlakatning raqobatdoshligini oshirish, katta oqimdagi axborotni to'plash va umumlashtirish, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy omilga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda dunyo bo'yicha yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 5,5 foizdan ortig'i axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 9 foizdan oshishi kutilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar daromadnop sohalardan biri sifatida davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim tarmoqlardan biriga aylanib borayotir. Aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlashga, muhim boshqaruv jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, bugun hayotning o'zi bizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish biznes yuritishni yaxshilash, iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan birga, hayot sifatini oshirishga ham xizmat qilishini ko'rsatib turibdi. Shu bois yurtimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutib borayotgan ushbu tarmoqni jadal sur'atlar bilan ravnaq toptirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini muttasil oshirib borish muhim vazifalarimizdan ekanini ko'rsatadi. Bu jarayonda, ayniqsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, o'z navbatida, deputatlar sohaga oid qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunlarning ijrosini ta'minlashda parlament nazorati institutini faol qo'llagan holda aniq mexanizmlarga asoslangan dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishi davr taqozosidir. Ma'lumki, axborot texnologiyalari islohotlar jarayonining ochiqligini ta'minlash, davlat va jamiyat o'rtasida samarali axborot almashish mexanizmini o'rnatishda muhim -vosita sanaladi. Ayni paytda Hukumat, vazirlik va idoralar, shuningdek, parlament a'zolarining aholi bilan samarali muloqot o'rnatish uchun maxsus virtual qabulxonalari tashkil etilgani, avvalo, jahon amaliyotiga uyg'un

holda sohada qonun hujjatlarini muttasil takomillashtirib borish, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida keng jamoatchilik bilan muloqot qilish, istiqboldagi dolzarb masala hamda vazifalarni hayotiy talab va istaklar bilan uyg'un holda bajarishga yordam beradi.¹

¹<http://1news.uz/uzl/policy/zamonaviy-ahborot-tehnologiyalari--samarali-muloqot-vositasi/28.12.2016>

XULOSA

Biz yuqoridailardan keli chiqib quydagi xulosaga keldik:

Birinchidan «Barchamiz yaxshi tushunamiz, xalqimizning hayot darajasi o‘shishi, ko‘pgina muammolar hal qilinishi bilan Xalq qabulxonalariga murojaatlar kamayib boradi. Shuning uchun bu qabulxonalar imkoniyatlarini biz davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga yo‘naltiramiz». Davlatimiz rahbari hayotimizda adolat yanada mustahkam qaror topishi, har bir ishning xalqimiz bilan bamaslahat amalga oshirilishi, inson huquq va manfaatlarining amalda ta‘minlanishiga xizmat qiladigan yangi, zamonaviy tizim ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etish bilan mustaqil Vatanimiz tarixida yangi davrga, taraqqiyotning yangi bosqichiga asos solmoqda. Prezidentimizning **«Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir»**, degan hayotbaxsh so‘zlari bugun Xalq qabulxonalariga kiraverishda katta harflar bilan yozib qo‘yilgan. Xalq darditashvishlari bilan yonayotgan beorom qalb tubidan otilib chiqqan bu haroratli so‘zlar o‘zining, oilasining, butun el-yurtimiz, bugungi va kelajak avlodlar taqdiriga befarq bo‘lmagan har bir yurtdoshimiz uchun hayotiy a‘molga, ezgu vazifaga aylanishi shart. Hozirgi kunga qadar virtual qabulxonaga 2 million murojaat kelib tushdi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti virtual qabulxonasi ishga tushirilganiga bir yil to‘ldi. Ushbu munosabat bilan «Xalq so‘zi» gazetasida maqola e‘lon qilindi.

Xalq bilan muloqotning noyob tizimi fuqarolarning davlat organlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabat o‘rnatish imkonini berdi. Bir yil davomida sinovdan o‘tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo‘lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish

etildi. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining yuksak minbaridan turib, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilandi. mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha ikki milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta`kidlab o'tdi.

Ikkinchidan: 2017-yil xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida juda ko'plar islohotlar amalga oshirildi. mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha ikki milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta`kidlab o'tdi. Mening fikrim sayitining ishga tushishi xalqni og'irini yengil qilish uchun mo'ljallangan.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2017
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. Toshkent "Adolat" 2017
3. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilliga ag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. Toshkent: "O'zbekiston" 2017
4. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz ilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017
5. Uza.uz
6. Uzbekistan:Lv.uz
7. Stat.uz
8. Info.uz
9. Kun.uz
10. Mfa.uz
11. Gazeta.uz
12. Press-seeriec.uz
13. O'z.sputnik.uz
14. M.xabarlar.uz
15. 1news.uz